

**O'ZBEKSITON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM  
VAZIRLIGI  
ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI.**

**PEDAGOGIKA FAKULTETI**

**MAKTABGACHA TA'LIM YO'NALISHI**

**Husnida Isroilovaning  
BITIRUV MALAKAVIY ISh**

**MAVZU: Maktabgacha yoshdagi bolalarning psixik jarayonlarini  
rivojlantirish masalalari**

**Ilmiy raxbar:**

**F.Saidova.**

**Andijon 2015y.**

## **REJA:**

### **Kirish**

#### **I.bob. Maktabgacha yoshdagi bolalarning psixik jarayonlarini rivojlantirish masalalarini nazariy metodologik asoslari.**

1.1. Jahon psixologlari asarlarida yosh davrlari muammosi

1.2. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar psixik rivojlanish xususiyatlari..

1.3 Maktabgacha yosh davri bolalarining shaxs sifatida shakllanishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy psixologik omillar

#### **II.BOB: Maktabgacha yoshdagi bolalar shaxsini rivojlanishida oilaviy munosabatlarning o`rni.**

2.1.Ota-on – bola munosabatlari psixologiyasini o`rganilishi.

2.2.Bola tomonidan ota-onalarning va ota-onalikning idrok etilishi

2.3.Sibling maqomining bola va kattalar munosabatiga ta'siri

#### **III. 3.bob Tajriba natijalarini qayta ishlash va amaliy tahlil qilish.**

3.1. Maktabgacha yosh davridagi bolalar shaxsini rivojlanishida oilaviy munosabatlarni o`rganish usullari.

### **Xulosa.**

### **Tavsiya.**

### **Adabiyotlar ro`yxati**

## MUNDARIJA:

<b>Kirish.....</b>	<b>3- 9</b>
<b>I.bob. Maktabgacha yoshdagi bolalarning psixik jarayonlarini rivojlantirish masalalarini nazariy metodologik asoslari.</b>	
1.1. Jahon psixologlari asarlarida yosh davrlari muammosi.....	10-15
1.2. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar psixik rivojlanish xususiyatlari.	16-26
1.3 Maktabgacha yosh davri bolalarining shaxs sifatida shakllanishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy psixologik omillar.....	27- 37
<b>II.BOB: Maktabgacha yoshdagi bolalar shaxsini rivojlanishida oilaviy munosabatlarning o`rni.</b>	
2.1.Ota-on – bola munosabatlari psixologiyasini o`rganilishi.....	38-49
2.2.Bola tomonidan ota-onalarning va ota-onalikning idrok etilishi.....	50- 53
2.3.Sibling maqomining bola va kattalar munosabatiga ta'siri.....	54- 58
<b>III. 3.bob Tajriba natijalarini qayta ishlash va amaliy tahlil qilish.</b>	
3.1. .Maktabgacha yosh davridagi bolalar shaxsini rivojlanishida oilaviy munosabatlarni o‘rganish usullari.....	60-69
<b>Xulosa.....</b>	<b>70-72</b>
<b>Tavsiya.....</b>	<b>73</b>
<b>Adabiyotlar ro`yxati.....</b>	<b>74</b>

## **Kirish.**

Prezidentimiz tashabbusi va rahnamoligida amalga oshirilayotgan tub islohotlarda “davlat – bosh islohotchi” tamoyili naqadar hayotiy ekani yil o’tgan sayin tasdiqlanib bormoqda. Bu tarixiy jarayonda ijtimoiy hayotning barcha sohalarida amalga oshirilayotgan yangiliklar teran ilmiy negizga egaligi, amaliy ishlar puxta o’ylangan tizim-tartib asosida olib borilayotgani e’tiborni tortadi.

“Bizning ezgu niyatimiz – kelajagi buyuk davlat va erkin jamiyat qurish. Bizning taraqqiyot strategiyamiz sog’lom avlod tarbiyasiga tayanadi va uni rivojlantirishga qaratilgan”, - Yurtboshimizning bu purma’no so’zlarida mustaqillik yillarida millat genofondini sog’lomlashtirish, ona va bola ijtimoiy muhofazasini ta’minalash yo’lida bajarilayotgan keng ko’lamli ishlarning asl mohiyati ifodalab berilgan.

Ma’lumki, o’zbek xalqi azaldan o’zining bolajonligi, oilaparvarligi bilan ajralib turadi. Albatta, farzandga mehr qo’yish, ularning qornini to‘q, ustini but qilish o’z yo’li bilan, lekin bolalarimizni yoshlik chog’idan boshlab milliy tarbiya, axloq- odob, yuksak ma’naviyat asosida voyaga yetkazish biz uchun doimo dolzarb ahamiyat kasb etib kelgan. Bu masalaga e’tibor bermaslik nafaqat ayrim ota-onalar, balki butun jamiyat uchun juda qimmatga tushishini ham ko‘pgina hayotiy misollarda ko‘rish mumkin<sup>1</sup>.

O‘z-o‘zidan ravshanki, yuqorida zikr etilganidek, bola tarbiyasida sog’lom nasl masalasi ham muhim rol o‘ynashini inkor etib bo‘lmaydi. Aqli raso har qaysi inson yaxshi anglaydiki, bu yorug‘ dunyoda hayot bor ekan, oila bor. Oila bor ekan, farzand deb atalmish bebaho ne’mat bor. Farzand bor ekan, odam- zot hamisha ezgu orzu va intilishlar bilan yashaydi, deya purma’no fikrlarini bayon qilgan muhtaram Prezidentimiz “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” nomli asarida.

Shaxsan menga «nasl» va «nasiba» degan so‘zlar o‘rtasida qandaydir ilohiy bog‘liqlik bordek tuyuladi. Albatta, har bir bandaga rizq-nasibani Olloh taolo

---

<sup>1</sup> I.Karimov, Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. T.: 2008. 56-b.

beradi. Lekin bu hayotda nasibasi butun va to‘la bo‘lishi uchun insonning o‘zi ham chin dildan intilishi, surriyodini sog‘lom muhitda tarbiyalashi katta ahamiyatga ega ekanini unutmasligimiz zarur<sup>2</sup>.

O’zbekiton Respublikasining Prezidenti I.A.Karimov asarlarida, O’zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risidagi” qonuni va “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”da belgilangan har tomonlama etuk, barkamol shaxsni tarbiyalash hozirgi kun ta’lim tizimi oldida turgan dolzarb muammolardan biridir.

Barkamol shaxsni tarbiyalashda bolaning mакtabgacha tarbiya yoshi psixologik xususiyatlarni xususiyatlarini bilish tarbiyachilar, pedagoglar va psixologlar, ota – onalar uchun muhim ahamiyatga ega bo’lgan vazifalar sarasiga kiradi. Ushbu tarbiyaviy jarayonda bolalarning yosh va individual xususiyatlarini eo’rganish, ularning har tomonlama rivojlanishini ta’minlashga ta’lim-tarbiya ishlarini to’g’ri yo’lga qo’yishga xizmat qiladi.

O’sib kelayotgan yosh avlodni muayyan maqsad yo’lida har tomonlama kamol toptirish, uning ongi, dunyoqarashi, e’tiqodini o’stirish,jamiyat ravnaqi va rivojlanishi yo’lida fidoiy ruxi bilan singdirilgan xulq-atvorini tarkib toptirish mакtabgacha tarbiya yoshi psixologiyasi oldida turgan dolzarb vazifalardan sanaladi. Xusan har tomonlama rivojlangan barkamol insonni tarbiyalashning maqsad yaa vazifalari manaviy boylik, axloqiy poklik, jismoniy mukammallikni o’zida mujassamlashtirgan ijtimoiy faollikni tarbiyalashni taqozo etadi. Mashxur rus pedagoglaridan biri Lesgaftning fikricha insonning mакtabgacha tarbiya yoshdagi davri shunday bir davrki, bu davrda bolada kelgusidaqanday xarakter xislatlari paydo bo‘lishi belgilanadi va axlokiy xarakterning asoslari yuzaga keladi D.B. Elkonin takidlaganidek, bola jamiyat a’zosi va shaxs sifatida shakillanib borar ekan, uning psixikasi rivojlanib olamni aks ettirish xususiyati go’daklikdan yetuklik davrigacha murakkablashib va takomillashib boradi

---

<sup>2</sup> I.Karimov, Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. T.: 2008. 56-b.

**Mavzuning dolzarbliji.** Mustaqil taraqqiyot yo‘liga chiqqan O‘zbekistonda ko‘plab yangi sohalar qatori aholiga psixologik maslahatlar berish hamda oilaviy psixoterapiya sohasini rivojlantirishga xizmat qiladigan tadqiqotlarga bo‘lgan muayyan ehtiyoj tobora ko‘proq sezilmoqda. Zero, bunday xizmatlarga ehtiyoj bir tomondan oilaviy munosabatlarni muvofiqlashtirishga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan, shu maskanda tarbiyalanayotgan bolalarning psixologik rivojlanishiga ota-onalar tomonidan ko‘rsatiladigan e’tiborning samarasini belgilaydi.

Bolaning psixik rivojlanishi uning ruhiyatiga ta’sir ko‘rsatuvchi ob’ektiv va sub’ektiv omillarga, xususan, undagi o‘zlikni anglash, o‘ziga-o‘zi beradigan baholar hamda munosabatlarning xarakteriga bog‘liqdir. Bu, avvalo, inson shaxsining psixologik asoslarini shakllantiruvchi, uning emotsional, intellektual va ijtimoiy rivojlanishiga zamin yaratuvchi ontogenezning dastlabki bosqichlariga taalluqlidir. Bunda oiladagi munosabatlar, xususan, ota-onalar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar, shuningdek, ota-onsa va farzandlar o‘rtasida o‘rnatiladigan munosabatlarning tabiat katta rol o‘ynaydi. Oila ijtimoiy guruhlarning eng kichigi bo‘lib, bolada o‘zi va o‘zgalar to‘g‘risida shakllanadigan ijtimoiy tasavvurlarining dastlabki muhiti sifatida katta ijtimoiy ahamiyatga molik maskandir. Davlatimiz rahbari I.A.Karimov ta’kidlaganlaridek, “Insonning eng sof va pokiza tuyg‘ulari, ilk hayotiy tushuncha va tasavvurlari birinchi galda oila bag‘rida shakllanadi. Bolaning xarakteri, tabiat va dunyoqarashini belgilaydigan ma’naviy mezon va qarashlar – yaxshilik va ezbilik, oliyjanoblik va mehr-oqibat, or-nomus va andisha kabi muqaddas tushunchalarning poydevori oila sharoitida qaror topishi tabiiydir”.<sup>3</sup>

Tadqiqotning dolzarbliji, shu nuqtai nazardan boladagi jamiyatda, insoniy munosabatlar tizimida munosib maqomga ega bo‘lishini ta’minlaydigan eng dastlabki ijtimoiy tasavvurlar hamda o‘zi va o‘zgalar to‘g‘risidagi tushunchalarning shakllanishiga oiladagi ma’naviy-ruhiy munosabatlarning rolini aniq empirik ma’lumotlar bilan asoslashga bo‘lgan davrning ehtiyojidan kelib chiqadi.

Ko‘plab psixologik tadqiqotlarda oila bola shaxsining shakllanishi va uning

---

<sup>3</sup> I.Karimov, Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. T.: 2008, – 52 b.

ijtimoiylashuviga ta'sir ko'rsatuvchi omil sifatida baholanadi. Lekin boladagi o'zi to'g'risidagi barcha tasavvurlarning shakllanishida u tarbiyalanayotgan oiladagi munosabatlarning xususiyatlari, oila tiplari va ota-onalik maqomlarining ular tomonidan qay darajada anglanishining kuchini o'rganish yosh ota-onalar va oilashunoslar uchun o'ta dolzarb ahamiyat kasb etadi.

**Bitiruv malaka ishi ishining o'rganilganlik darajasi.** Respublikamizda mazkur yo'naliшgа aloqador ko'plab tadqiqot ishlari olib borilgan. Jumladan, M.G.Davletshin, G'.B.SHoumarov, V.M.Karimova, R.I.Sunnatova, E.G'.G'oziev, B.R.Qodirov, SH.R.Barotov, Z.T.Nishonova va boshqalarning tadqiqotlari shaxsning ijtimoiylashuvi va unda oilaviy ijtimoiylashuvning o'rnini tadqiq etishga bag'ishlangan. Bundan tashqari chet el olimlari tomonidan ham mazkur mavzuga oid ko'plab ilmiy tadqiqot ishlari olib borilganligi va ularning natijasida etarlicha ilmiy-amaliy tajriba to'planganligini ko'rishimiz mumkin. Bu masala B.G.Ananev, L.S.Vlygotskiy, M.I.Lisina, V.S.Muxina, K.Rojers, Z.Freyd, K.Xorni, E.Erikson va boshqalar tomonidan o'rganilgan, lekin ularda ota-onalik ijtimoiy maqomining bolada o'zini-o'zi anglashiga ta'siri bevosita o'rganilmagan.

**Tadqiqot ishining maqsadi:** maktabgacha yoshdagi bolaning o'zini-o'zi anglashi mazmuniga ta'sir ko'rsatuvchi oilaviy munosabatlar, xususan, er bilan xotin o'rtasidagi hamda ota-onalik bilan bola o'rtasidagi munosabatlarning o'zaro bog'liqligini tadqiq qilish.

#### **Tadqiqotning vazifalari:**

1. Maktabgacha yoshdagi bolalarda o'zini-o'zi anglashining psixologik xususiyatlari aniqlash.
2. Maktabgacha yoshdagi bolalarda o'zini-o'zi anglashiga taalluqli bo'lган asosiy psixologik komponentlarni aniqlash.
3. Oiladagi munosabatlarning sub'ektlari sifatidagi ota-onaning o'zlikni anglash xususiyatlarini, oilaviy munosabatlarning, chunonchi, ota va ona, ota-onalik bilan bola munosabatlarining turli jihatlari o'rtasidagi psixologik mexanizmlarni tadqiq qilish.
4. Oiladagi munosabatlar, chunonchi, ota va ona o'rtasidagi, ota-onalik bilan bola munosabatlarining turli jihatlari o'rtasidagi psixologik mexanizmlarni tadqiq qilish.

o‘rtasidagi munosabatlarning xususiyatlari, mazmunidan kelib chiqib, ayrim alohida komponentlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni empirik jihatdan asoslash.

**Tadqiqot ob’ekti:** Andijon shaxridagi “Istiqlol nihollari” nomli Maktabgacha ta`lim muassasasi tarbiyalanuvchilari 50 nafar maktabgacha yoshli bolalar .

**Tadqiqotning predmeti:** Maktabgacha yoshdagি bolalar shaxsini rivojlanishi va oiladagi munosabatlar xususiyatlarining o‘zaro aloqasi hisoblanadi.

**Tadqiqot metodlari:** Kuzatish metodi, eksperiment metodi va so‘rovnoma,sotsiometriya, E.I.Zaxarovaning “Ota-onalar munosabati” so‘rovnomasi,R.F.Belyauskaytening “Oilaning kinetik rasmi” (OKR) metodikasi.

### **Tadqiqotning farazi:**

1. Taxminimizcha, maktabgacha yoshdagи bola oiladagi ota-onada va farzandlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning xarakteridan kelib chiqishi.
2. Bola psixik taraqqiyotining keyingi rivojlanishining asosiy omili sifatida nafaqat ota-onada va bola o‘rtasidagi munosabatlar, balki er va xotin o‘rtasidagi munosabatlarning xususiyatlari hamda er-xotinlik munosabatlarining bola tomonidan idrok etilishi darajasiga bog‘liq bo‘lishi mumkin. Ushbu asosiy taxminlarimizning mazmuni quyidagi ishchi taxminlar asosida o‘z isbotini topadi:

**Tadqiqotning metodologik va nazariy asoslari.** Tadqiqotga mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimovning asarlarida, nutqlarida oilaning ma’naviy jihatdan tarbiyalovchi rolini oshirish, uning ma’naviyatni yuksaltirish masalalariga bag‘ishlangan fikrlari, tavsiyalari va xulosalari metodologik asos sifatida xizmat qildi.

Bundan tashqari, L.S.Vygotskiyning bola shaxsini konkret ijtimoiy-madaniy sharoitlarda shakllanishi, tarixiy-madaniy vaziyatlarning rolini asoslovchi nazariyasi; A.N.Leontevning bola rivojlanishining har bir bosqichida uning ruhiy hayotidagi o‘zgarishlar o‘rtasida ichki bog‘lanishlar mavjudligi haqidagi konsepsiysi xizmat qildi. Bundan tashqari, o‘zbek psixologlari M.G.Davletshin, G‘.B.SHoumarov, V.M.Karimova, R.I.Sunnatova, E.G‘.G‘oziev, B.R.Qodirov, SH.R.Barotov, Z.T.Nishonova va boshqalarining shaxs ijtimoiylashuviga

konsepsiyasidagi nazariy qoidalarga bog‘liq tomonlari ijtimoiy psixologik nuqtai nazaridan metodologik manba sifatida foydalanildi.

### **Ishning ilmiy yangiligi:**

- Tadqiqotda ilk marotaba o‘zbek oilalarida bolalar o‘zini-o‘zi anglashining ijtimoiy psixologik fenomenlari maxsus tadqiqot predmeti sifatida o‘rganilayotganligi;
- Psixologiya fanilari yo‘nalishida birinchi marotaba shaxsning o‘zini-o‘zi anglash hodisasiga ijtimoiy-psixologik jihatdan yondashilganligi;
- Ilk marotaba ijtimoiy tasavvurlar doirasida shaxsning o‘zi to‘g‘risidagi tasavvurlari o‘zini-o‘zi anglashning ijtimoiy-psixologik mexanizmi sifatida qaralganligi.

**Tadqiqot natijalarining nazariy ahamiyati.** Nazariy jihatdan olib qaraganda, tadqiqotning natijalari ijtimoiy psixologiya va yosh davrlari psixologiyasini yangi ilmiy ma’lumotlar bilan boyitadi hamda o‘zini-o‘zi anglashning namoyon bo‘lishida milliy g‘oya, mafkura va maqsadga yo‘naltirilgan ma’rifiy ishlarning samaradorligini ilmiy jihatdan asoslaydi. Undan tashqari, tadqiqotda berilgan xulosa va takliflardan oila, oilaviy munosabatlar, tarbiya, o‘zini-o‘zi anglash (refleksiya) tushunchalari bilan bog‘liq muammolarni tadqiq etishda hamda pedagogik psixologiyada jins pedagogikasi muammolarini hal qilishda, amaliy psixologiyada bolalar va ularning ota-onalari bilan maktab hayotiga tayyorgarlik bosqichidagi ishlarda, shuningdek, psixoterapiyada, oiladagi ichki munosabatlar – er-xotin hamda ota-ona va bolalar o‘rtasidagi munosabatlar diagnostikasi va korreksiyasi uchun samarali bo‘lishi mumkin.

**Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati.** Amaliy jihatdan olib qaralganda, tadqiqot materiallaridan oliy o‘quv yurtlarida, milliy tarbiya, davlat mustaqilligini mustahkamlashda oilalarning roli va boshqa bir qator mavzular bo‘yicha mashg‘ulotlar olib borishda foydalanish mumkin. Tadqiqotning amaliy ahamiyati yana shundan iboratki, unda ota-onaning o‘zlikni anglash sub’ektlari sifatidagi rollari, ularning oiladagi o‘zaro munosabatlari xususiyati ahamiyati aniqlangan.

**Tadqiqotning amaliy ahamiyati:** Ilmiy ishdan kelib chiqqan xulosa va tavsiyalarni yosh va pedagogik psixologiya oila psixologiyasi va ijtimoiy psixologiya fanlarini o‘qitishda foydalilaniladi.

## **I.bob. Maktabgacha yoshdagi bolalarning psixik jarayonlarini rivojlantirish masalalarini nazariy metodologik asoslari.**

### **1.1. Jahon psixologlari asarlarida yosh davrlari muammosi**

Bolalar psixologiyasining o‘rganish ob’ekti bu yosh davrlarining o‘ziga xos psixik rivojlanish muamosi hisoblanadi. Jaxon psixologlari bolalar psixik rivojlanishi, psixologik xususiyatlari, bola shaxsining shakllanishi, bolalardagi “Men” tushunchasiining shakllanishi va o‘z-o‘zini anglash masalalari bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar olib borganlar.Jumladan L.V.Vigotskiy, psixolog, J.P’yaje, Lyublinskaya, Levitov va boshqlar o‘z tadqiqotlarida bolalarning bilish jarayonlarini rivojlanishi, masalalari ni taxlil kilib bolalar psixologiyasini nazari va amaliy manbaalar bilan boyitganlar. Bolaning psixik rivojlanish muammosi zamonaviy psixologiyaning diqqat markazida turadi. Psixologlar fikricha, bolaning psixik xususiyatlarini shakllanishini ijtimoiy omil belgilab beradi deb P.Ya. Galperin, D.K.Elkonin, V.V.Davidov, A.V.Zankov, N.A.Menchenskaya va boshqa psixologlar taklif qilishgan. Demak bolalarda orientir faoliyat va bola psixikasining rivojlanishidagi har bir bosqichidagi faoliyat ko‘rinishlarini shakllanishiga asosiy diqqat qaratilgan. D.K.Elkonin va V.V.Davidov” ta’lim o‘zining bosh rolini aqliy rivojlanishda bolaning bilimlarini o‘zlashtirish orqali hosil qiladi”, deb ta’kidlashgan. Shuning uchun ular bolalarda umumlashgan usullar va anglash usullarini shakllantirib, ular orqali bola o‘quv materialini muvaffaqiyatli o‘zlashtiradi, deb hisoblashgan. A.V.Zankov rivojlangan ta’limga muvaffaqiyatli sharoitlarini mehnatning yuqori darajasi materialini tez tempda o‘tish bolaga ta’lim jarayonini anglashiga ta’sir ko‘rsatadi, deb ta’kidlagan. A.V.Zaporojets, V.V.Davidov, D.K.Elkoninlarning o‘tkazgan tadqiqotlarida maktabgacha va kichik maktab o‘quvchilarining imkoniyatlari keng ochib berilgan. Bu maktabgacha tarbiya va boshlang‘ich ta’lim dasturi va dastur tartibi psixologik kriteriyalari orqali boyitilib, tarbiyaning ta’limiy ishida maktabning boshlang‘ich sinflarida yuqori talablarni qo‘yilishiga olib keldi. Bolalar psixik rivojlanishini o‘rganish borasida psixologlar kundalik tutishni taklif etganlar.bunda bolalarning rivojlanishi jarayonida ham fiziologik, ham psixologik rivojlanishidagi o‘zgarishlarni

kundalikka qayd etib borilgan .To‘plangan ma’lumotlar asosida bolalarning psixik rivojlanishi tartibi, ta’sir etuvchi faktorlarning ahamiyati xaqida tegishli xulosalar va amaliy tadkikot o‘sullari ishlab chiqilgan. Yosh psixologiyaning uzoq muammolarini ishlanmasi S.L.Rubenshteyn (1889-1960) faoliyati bilan bog‘liqdir. U o‘zining “Umumiylar psixologiya” kitobida oliv psixikani shakllantirish muammosiga alohida to‘xtalgan. Rubinshteyn bo‘yicha psixika rivojlanishining asosiy qonuni bu bolalar ta’lim va tarbiya omili asosida voyaga yetadi va rivojlanishi bilan belgilanadi. Demak bola kattalar qo‘li ostida inson madaniyatiga erishishini o‘zlashtiradi. Bu esa uning oldinda harakatlanishini belgilaydi. Psixika rivojlanishini tushunish uchun anglash va faoliyat muammosi birinchi o‘rinda turadi. Olimlarning ta’kidlashicha faoliyat psixikani vujudga keltiradi. Odamning psixik jarayonlari va xususiyatlari faoliyatni boshqaradi.

S.L.Rubinshteyn bo‘yicha anglash va holat faoliyatining aniq shakllari ichida rivojlanadi. Shu orqali bola rivojlanishini harakatlantiruvchi kuch hamda kattalarning o‘ziga xos sabablarini aniqlash mumkin.

Demak, maktabgacha yoshdagagi bola atrofdagi odamlarga bog‘liq holda uning hulqidagi talablar bilan xisoblashish kerak. Yosh psixologiyaning uzoq muammolarini ishlanmasi S.L.Rubenshteyn (1889-1960) faoliyati bilan bog‘liqdir. U o‘zining “Umumiylar psixologiya” kitobida oliv psixikani shakllantirish muammosiga alohida to‘xtalgan. Rubinshteyn bo‘yicha psixika rivojlanishining asosiy qonuni bu bolalar ta’lim va tarbiya omili asosida voyaga yetadi va rivojlanishi bilan belgilanadi. Demak bola kattalar qo‘li ostida inson madaniyatiga erishishini o‘zlashtiradi. Bu esa uning oldinda harakatlanishini belgilaydi. Psixika rivojlanishini tushunish uchun anglash va faoliyat muammosi birinchi o‘rinda turadi. Olimlarning ta’kidlashicha faoliyat psixikani vujudga keltiradi. Odamning psixik jarayonlari va xususiyatlari faoliyatni boshqaradi.

S.L.Rubinshteyn bo‘yicha anglash va holat faoliyatining aniq shakllari ichida rivojlanadi. Shu orqali bola rivojlanishini harakatlantiruvchi kuch hamda kattalarning o‘ziga xos sabablarini aniqlash mumkin.

Demak, maktabgacha yoshdagi bola atrofdagi odamlarga bog‘liq holda uning hulqidagi talablar bilan xisoblashish kerak

Bola taraqqiyoti haqidagi birinchi kundalik XIX asrning ikkinchi yarmida Ch.Darvin tomonidan nashr qilingan .Undan so‘ng nemis psixolog V.Shtern va yana psixologlardan N.N.Ladigina-Kots, N.A.Menchinskaya, V.S.Muxina, va boshqalar bolalarning psixik taraqqiyoti yuzasidan sistemali tarzda olib borgan o‘z kundaliklarini nashr qilganlar.Lekin shunga qaramasdan , bolalar psixologiyai borasida olib borilayotgan tadqiqotlarning jamiyat hayotida tutgan o‘rni juda oshib ketdi, deb bo‘lmaydi. Sababi, psixologiya sohasida faoliyat ko‘rsatgan barcha olimlar ko‘prok diqqatlarini mavxum shaxs va individual psixologiyaga qaratdilar. Vaholanki, inson, uning barkamolligi, jamiyat taraqqiyotiga bevosita ta’siri masalasi hozirgi davrga kelib, o‘ta dolzarb va muhim muammolar qatoridan joy oldi. Inson psixologiyasini bilish, o‘z taraqqiyotini va iqtidorini tashkil etishni bilish, har qanday yosh davrda ham optimal ravishda ishga yaroqlilikni, turli o‘zgarishlarga psixologik jihatdan tayyorlikni ta’minlash, yangicha fikrlash va tafakkur qilish, ro‘y berayotgan jarayonlarni ob’ektiv va to‘g‘ri idrok qilish qobiliyatini rivojlantirish muammosini ilgari surdi.

Shunday qilib, yangi davr har bir insondan o‘z ichki imkoniyatlarini adekvat bilish, shu bilimlar zahirasi bilan yaqinlari va hamkasblari psixik dunyosini bilishni talab qilmoqda. Buyuk Suqrot o‘z davrida «O‘z - o‘zingni bil!» degan shiorni o‘rtacha tashlagan bo‘lsa, yangi davr «o‘z yoningdagilarni va ularning qilayotgan ishlarini ham bil», degan shiorni har qachongidan ham dolzarb qilib qo‘ydi. Ayni shu muammoni yechishda hozirgi zamon psixologlarining olib borayotgan izlanishlari natijalari psixologiya ilmi va amaliyotining taraqqiyotidagi roli benihoya kattadir.

An’anaga aylanib qolgan hodisalardan biri shuki, psixologiya va u o‘rganadigan hodisalarini faqatgina ushbu fan bilan bevosita shug‘ullanadigan kimsalar o‘rganib kelishgan, zero, psixologik hodisalar bilan har qanday inson ham tanish bo‘lishi va u inson hayotining asosini tashkil etishi kerak. Yangi davr va uning o‘zgarishlarga boy hayoti endi har bir kishining psixik hodisalar

qonuniyatlarini bilish va shunga mos tarzda oqilona va omilkorona ish yuritish zaruratini talab qilmoqda.

Bolalar psixik xususiyatlarini shakllanishini o‘rganishning muxim tomonlaridan biri turli yoshdagi bolalarda sezgi, idrok, dikkat, xotira, nutk, tafakkur, xissiyot, xayol va iroda kabi psixik jarayonlarining namoyon bo‘lishi, taraqqiy etishi hamda takomillashuvining konuniyatlarini urganishdan iboratdir. Ma’lumki, bola shaxsi va uning psixologik xususiyatlari kandaydir tasodify omillarning tartibsiz ta’sir etishi natijasida emas, balki muayyan konkret omilning konuniy ta’sir etishda tarkib toptiradi. Ana shu muxim konuniy tarzda ta’sir kiladigan omillarni ochish va isbotlash bugungi kun psixologiyasining dolzarb masalalaridan xisoblanadi. Bolalarning psixik xususiyatlarini o‘rganish orqali bolalar shaxsi va shaxsiy psixologik konuniyatlarning tarkib topishi kabi muxim ilmiy malakalarni o‘rganib, mamlakatimizda yangi tipdagi odamlarni tarbiyalab yetishtirish konuniyatlarini ochib berish imkoniyatlari xaqida umumlashgan ilmiy va amaliy tavsiyalar ishlab chikiladi..

Tabiat va jamiyat taraqqiyotining umumiyligi konuniyatlaridan xabardor bo‘lish bolalar psixologiyasiga bolalar psixik taraqqiyotini o‘rganishda va «tabiiy zot» bo‘lib tug‘ilgan bolaning inson ijtimoiy tajribasini egallab, shaxs bo‘lib yetishini o‘rganish to‘g‘ri yo‘l topishga yordam beradi.

Bolalarda psixik jihatdan taraqqiy etish muammosini o‘rganish falsafa uchun ham katta ahamiyatga ega. Ma’lumki, bilish nazariyasi va dialektika konuniyatlarining tarkib topishida lozim bo‘lgan bilim sohalarini sanab ko‘rsatar ekan, psixologianing uch sohasini «bolalarning aqliy rivojlanish tarixi, xayvonlarning aqliy rivojlanish tarixi, til tarixi, psixologiya, sezgi organlari fiziologisi»ni ko‘rsatgan. Demak bolalar psixixologik xususiyatlarini o‘rganish orqali bolalar psixikasining tarakkiiy etishi tarixi va konuniyatlarini o‘rganib filosofiyaning yanada rivojlanishiga yordam berilar ekan.

Bolaning aqliy taraqqiyoti konunlaridan xabardor bo‘lish turli yoshdagi bolalar bilan ta’lim-tarbiya ishlarini to‘g‘ri tashkil kilish imkoniyatini beradi.

Bolaning o'sishi, uning psixikasi va onging taraqqiyoti jamiyat a'zosi sifatida voyaga yetishida taraqqiyot kanday kilib yuzaga keladi? degan savolni hal qilish muxim masaladir. Taraqqiyotni tushuntirishda bir-biriga qarama-qarshi 2 turli yunalish mavjud. Birinchi yunalishga muvofik taraqqiyot avvalgi narsaning oddiy takrorlanishidan, organizmda mavjud bo'lgan muayyan sifatlarning ko'payishi yoki kamayishidan iborat. Bu yo'naliish taraqqiyotning xaqiqiy sabablarini tushuntirib bera olmaydi va xudoning irodasi bilan bog'laydi. Bu yo'naliishning o'ziga xos xususiyati mavjud. Lekin xudo tomonidan yaratilgan insonni xaqiqiy inson bo'lishi ijtimoiy hayot va muxit, ta'lim va tarbiyaga bog'likdir.

Ikkinchi yo'naliishga ko'ra, taraqqiyot qarama-qarshiliklar kurashining natijasidir. Bu ilmiy yo'naliish bo'lib taraqqiyotning sabablarini o'zgarib turuvchi tashqi muxit sharoiti bog'laydi. Bunga ko'ra tashqi muxit tobora yangi talablar qo'yadi, organizm yangi sharoitga moslashar ekan qarama-qarshiliklarga bardosh berish, kurashish jarayonidir, yangi sifatlar hosil qila boradi, ya'ni organizm taraqqiy qiladi.

O'sish-mikdoriy jihatdan ulg'ayish, demakdir. Taraqqiyot-sifat jihatdan o'zgarish demakdir. Bolaning psixik taraqqiyoti ham karama-qarshiliklar kurashi asosida yuz beradi. Bu qarama-qarshiliklar:

1. Bolaning shu choqqacha erishgan darajasi, imkoniyatlari bilan yangi ehtiyojlar o'rtasida tug'iladigan karama-karshiliklar. Ya'ni bolalarning extiyojlari tez ortib boradi. Lekin bu extiyojlarni qondirish imkoniyatlari juda sekinlik bilan yuzaga keladi.
2. Bolaning eski xulq-atvori formalari bilan yangi xatti-xarakatlari, yangi tashabbuslari o'rtasidagi qarama-qarshiliklar. M: Yosh bolaning asosiy faoliyati kattalarga taxlid qilishdir. Taxlidiy xarakatlarda mustakillik, tashabbuskorlik bo'lmaydi. Bola o'sib ulg'aygan sari uning tajribasi, mustaqilligi, tashabbusi orta boradi. M: mustaqil yurish, ba'zi ishlarni bajarish.
3. Bola xayotining mazmuni bilan uning formasi o'rtasida vujudga keladigan qarama-qarshiliklar. Odatta hayotning mazmuni uning formasidan biroz

oldinrok vujudga keladi. M: Bola bog‘chaga qatnay boshlashdan oldin oiladagi xayotga o‘rganib qoladi. Bog‘chada esa yangicha hayotning boshqacha talablari va qoidalariga duch keladi.

Demak, bolaning psixik taraqqiyoti juda murakkab jarayondir. Lekin bu taraqqiyot kanchalik murakkab bo‘lmisin uning qonuniyatlari fanga ayondir. Bolaning psixik taraqqiyoti ijtimoiy hayot bilan bog‘lik bo‘lgan aniq shart-sharoitning ta’siri tufayli yuz beradi.

Xozirgi zamon psixologiyasida psixikaning taraqqiyot muammosi quyidagilarga asoslanadi.

1. Taraqqiyot qarama-qarshiliklar kurashidan, ziddiyatlardan iboratdir, degan ta’limotiga:
2. Bolalar kamoloti haqidagi chet el karashlari tanqidiy analiz qilinib yetilganligiga:
3. Bolalar psixologiyasi bilan pedagogik psixologiya sohasida olib borilgan eksperimental ilmiy tadqiqotlarga:
4. O‘sayotgan avlodni komil inson tarbiyalash praktikasiga suyanadi.

Mashxur pedagog A.S. Makarenko ham bolaning kamolot imkoniyatlariga katta e’tibor berib, «bola shaxsining loyihalash kerak degan edi. Ya’ni Makarenkoga tarbiyachi ta’lim-tarbiya jarayonida bolaning xozirgi taraqqiyot boskichini xisobga olib kelajakda qanday taraqqiyot darajasiga erishish anik rejalgarda ega bo‘lmog‘i kerak». Xulosa qilib aytganda, zamonaviy yosh va pedagogik psixologiya bola rivojlanishi, bu psixik jarayonlarning va shaxsiy hususiyatlarni shakllanishi, deb qabul qilingan. Bu bola shaxsiy faoliyat natijalarida jamiyat omillari va tarbiyaning ta’siri bola faoliyatini hal qilib beradi hamda paydo bo‘ladigan yangi ehtiyojlarni va xususiyatlarni qondirish bilan belgilanadi.

## **1.2. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar psixik rivojlanish xususiyatlari.**

Psixik rivojlanishdan biologik va ijtimoiy omillar bolani psixik rivojlanishida shaxs, inson muammosi psixologiyaning markazida turgan eng qiyin muammolardan bo‘lib hisoblanadi. Ongli inson tarbiyasini psixik rivojlantirish jarayon qonuniyatlarni bilmasdan tarbiyalash aqlga sig‘maydi. Inson shaxsi qaysi jarayonga kattalar tomonidan maqsadga yo‘naltiradi. Ushbu jarayonni boshqarishdagi imkoniyatlar qanday? Bu savollarga javob izlashda odam nima bilan tug‘iladi, hayot jarayoni va faoliyatida nimalarga erishadi. Ta’lim-tarbiya tizimini oydinlashtirish orqali amalga oshirish zarur. Dialetik, materialistik, biologik va ijtimoiy munosabatlarni o‘zaro insondagi psixologik ilmda dialetik, materialistik o‘rganishga ruxsat beriladi. Bunda inson «barcha jamiyat munosabatlarida mavjud».

Inson biologik mavjudot, shuning uchun uning psixik rivojlanishiga ta’sir qilishda ikkita ajoyib omil ko‘rsatiladi

1. Biologik –tabiat.
2. Jamiyat tomonidan tashkillashtirilgan ta’lim va tarbiya.

Ushbu omillarning o‘zaro munosabati turli nazariyalar bilan ko‘rib chiqilgan.

Biologizator insondagi tabiatan berilgan hayotiy jarayonlarni hal qiluvchi omil sifatida uning rivojlanishini belgilab berishini tan olishadi. Bu yo‘nalishda odam tabiatdagi biologik ahamiyatini baholash, turli nazariyalarga asoslanib ochib kelinadi. Tashqi biologik ta’sir omillari sotsialogizatorlar nuqtai-nazarida ahamiyatsizdir.

Mazkur ikkita yondashuv metafizikadir. Ular faqat bitta omilni tan olishib uni o‘zaro munosabat va bog‘liqlikni ko‘ra olmagan. Psixologik yo‘l psixika rivojlanishidagi dialetik muammolarni hal qilishda insonni biologik mavjudot sifatida qarab, ikki omilning yaxlit faoliyati psixikani tushunishdagi materialistik jihatdan miyaning ob’ektiv aksi sub’ektivda deb qaralgan. Muammoni yechishda dialetik materialistik yondashuv inson tabiiy ma’lumotlariga psixik rivojlanishni biologik-anatomik xususiyatlarining bog‘liqligini asosiy psixik faoliyati sifatida bosh miyaning oliy nerv faoliyati vujudga keladi va bolani o‘rab turgan tashqi

ta'sirlar hayot tarzi jamiyat tarixi psixik hayotni tarkibiga kirib inson shaxsini shakllantiradi.

3-7 yoshgacha bo'lgan davr bog'cha yoshi davri hisoblanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasida juda tez sifat o'zgarishlari bo'lishini inobatga olgan holda Bog'cha yoshidagi bolalar shaxsining shakillanishiga ko'ra bu davrni uch qismga ajratish mumkin: Birinchi davr-bu 3–4 yosh oralig'ida bo'lib, bola emotSIONAL jihatdan o'z-o'zini boshqarishning mustaxkamlanishi bilan bog'liqidir. Ikkinci davr-bu 4–5 yoshni tashkil qilib ahloqiy o'z –o'zini boshqarish. Uchinchi davr esa shaxsiy ishchanlik va tadbirkorlik xususiyatining shalklanishi bilan xarakterlanadi.

Maktabgacha davrda ahloqiy tushunchalar borgan sari katoylasha boradi. Ahloqiy tushunchalar manbai bo'lib ularning ta'lim –tarbiyasi bilan shug'ullanayotgan kattalar, shuningdek, tengdoshlari ham bo'lishi mumkin. Ahloqiy tajribalar asosan muloqot, kuzatish, taqlid qilish jarayonida, shu bilan birga kattalarning ayniqsa onalarning maqtovi va tanqidlari orqali o'tadi va mustaxkamlanadi. Bola doimo baho, ayniqsa maqtov olishga xarakat qiladi. Bu baho va maqtovlarning bola shaxsidagi muvaffaqiyatga erishishga xarakat xususiyatining rivojlanishida, shuningdek, uning shaxsiy xayoti, hamda kasb tanlashida ahamiyati juda katta.

Bog'cha yoshidagi davrda bolalarda muloqotning yangi motivlari yuzaga keladi. U shaxsiy va ishbilarmonlik motivlaridir. Shaxsiy muloqot motivlari bu – bolaning tashvishga solayotgan ichki muammolari bilan bog'liq ishbilarmonlik motivlari esa u yoki bu ishni bajarish bilan bog'liq bo'lgan motivlardir. Bu motivlarga asta –sekinlik bilan bilim, ko'nikma va malakalarni egalash bilan bog'liq bo'lgan o'qish motivlari qo'yiladi. Bu motivlar ilk bolalik davrdan boshlanib yuzaga keladigan bolalarning tabiy qiziquvchanligi o'rnida paydo bo'ladi. O'zini ko'rsatish motivlari ham bu yoshda yaqqol namoyon bo'ladi. Bu motiv asosan bolalarning syujetli – rolli uyinlarda asosiy rolni egallahsha boshqalar ustidan rahbarlik qilishga, musobaqaga kirishishga qo'rmasligida nima

bo‘lganida ham yutishga xarakat qilishlarida ko‘rinadi. Maktabgacha yosh davri bolalari uchun kattalar beradigan baholari juda muhim. Bolalar birinchi navbatda maishiy ahloq norma va qoidalarni, o‘z majburiyatlariga munosabat, kun tartibiga rioya etish, hayvon va narsalar bilan muomala qilish normalarini egalaydilar. Bunday normallarni egallah bu yoshdagi bolalar uchun qiyin hisoblanib, ularni yaxshi o‘zlashtirish uchun syujetli –roli o‘yinlar yordam berishi mumkin. Bog‘cha yoshining oxirlariga kelib, ko‘pchilik bolalarda aniq bir ahloqiy qarashlar tarkib topadi, shuningdek, odamlarga munosabat bilan bog‘liq bo‘lgan shaxsiy sifatlar ham shakllanadi. Kishilarga nisbatan diqqatli, mehribon bo‘lish xususiyatidir. Katta yoshdagi bolalar ko‘p hollarda o‘z xatti –xarakatlari sababini tushuntirib bera oladilar .

3–3,5 yosh oralig‘ida o‘zlarining muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizliklariga o‘z munosabatlarini bildiradilar va bu munosabat asosan ularning o‘zlariga beradigan baholari assosida bo‘ladi. 4 yoshli bolalar esa o‘z imkoniyatlarini real baholay oladilar. Lekin 4 –5 yoshli bolalar hali shaxsiy xususiyatlarini idrok etishga va baholashga qodir emaslar, shuningdek o‘zları haqida ma’lum bir xulosani bera olmaydilar. O‘z –o‘zini anglash layoqati katta bog‘cha yoshidan boshlab rivojlanib avval u qanday bo‘lganini va kelajakda qanday bo‘lishini fikrlab ko‘rishga xarakat qiladi. Bu esa bolalar beradigan «Men kichkina paytimda qanday bo‘lgan edim?», «Men katta bo‘lganimda qanday bo‘laman?» singari savollarida ko‘rinadi. Kelajak haqida fikr yuritib, bolalar kelgusida kuchli, jasur, aqli va boshqa shu singari qimmatli insoniy fazilatlariga ega bo‘lishiga xarakat qiladilar.

Kichik va o‘rta bog‘cha yoshida bola xarakterining shakllanishi davom etadi. U asosan bolalarning kattalar xarakterini kuzatishlari assosida tarkib topadi. Shu yillardan boshlab bolada ahamiyatli hisoblangan –iroda, mustaqillik va tashabbuskorlik kabi ahamiyatli shaxsiy xususiyatlar rivojlana boshlaydi. Katta bog‘cha yoshida bola atrofdagi odamlar bilan turli faoliyatlarda muloqot va munosabatlarga kirishishga o‘rgana boshlaydi. Bu esa unga kelajakda odamlar bilan til topishishda, ish bo‘yicha va shaxsiy munosabatlarni normal ravishda

o‘rnata olishida foyda keltiradi. Bu yoshdagi bolalar shaxsining shakllanishida ularning ota –onalari haqidagi fikrlari va ularga beradigan baholari nihoyatda ahamiyatlidir.

Bola rivojlanish jarayonida odamlarning ilgari o‘tgan avlodlari tomonidan yaratilgan predmet va xodisalar olami bilan alohida maxsus munosabatga kirishadi. Bola insoniyat qo‘lga kiritgan barcha yutuqlarni faol ravishda o‘zlashtirib, egallab boradi. Bunda predmetlar olamini, hamda ular yordamida amalga oshiriladigan xatti – xarakatlarni, tilni , odamlar orasidagi munosabatlarni egallab olishi, faoliyat motivlarining rivojlanishi, qobiliyatlarning o‘sib borishi, katta yoshli kishilarning bevosita yordamida amalga oshirilib borilmog‘i kerak. Asosan mana shu davrdan boshlab bolaning mustaqil faoliyati kuchaya boshlaydi. Bog‘cha yoshdagi bolalarga beriladigan tarbiya ularning murakkab xarakatlarini takomillashtirish, elementar gigiena, madaniy va mehnat malakalari xosil qilish, nutqini o‘stirish hamda ijtimoiy ahloq va estetik didning dastlabgi kurtaklarini yuzaga keltirish davridir.

Mashxur rus pedagoglaridan biri Lesgaftning fikricha insonning bog‘cha yoshdagi davri shunday bir davrki, bu davrda bolada kelgusida qanday xarakter xislatlari paydo bo‘lishi belgilanadi va ahloqiy xarakterning asoslari yuzaga keladi.

Bog‘cha yoshdagi bolalarning ko‘zga tashlanib turuvchi xususiyatlaridan biri ularning serharakatligi va taqlidchanligidir. Bola tabiatining asosiy qonunini shunday ifodalash mumkin: bola uzlucksiz faoliyat ko‘rsatishni talab qiladi, lekin u faoliyat natijasidan emas, balki faoliyatning bir xilligi va bir tomonlamaligidan charchab qoladi. Mana shu so‘zlardan bog‘cha yoshidagi bola tabiatning asosiy qonuni bo‘lmish serharakatligini ortiq cheklab tashlamay, balki maqsadga muvofiq ravishda uyushtirish kerakligi yaqqol ko‘rinib turibdi.

Kattalar va tengdoshlari bilan bo‘lgan munosabat orqali bola ahloq normalari, kishilarni anglash, shuningdek, ijobiy va salbiy munosabatlar bilan tanisha boshlaydi. Bog‘cha yoshidagi bola endi o‘z gavdasini juda yaxshi boshqara boshlaydi. Uning xarakati muvofiqlashtirilgan holda bo‘ladi. Bu davrda bolaning

nutqi jadal rivojiana boshlaydi. U yangiliklarni egallahsga nisbatan o‘zi bilganlarini mustaxkamlashga ehtiyoj sezadi. O‘zi bilgan ertagini qayta-qayta eshitish va bundan zerikmaslik shu davrdagi bolalarga xos xususiyatdir

Bog‘cha yoshdagi bolalar ehtiyoji va qiziqishlari jadal ravishda ortib boradi. Bu avvalo keng doiraga chiqish ehtiyoji, munosobatda bo‘lish, o‘ynash ehtiyojlarinig mavjudligidir. Bog‘cha yoshidagi bolalar nutqni bir muncha to‘la o‘zlashtirganlari va xaddan tashqari xarakatchanliklari tufayli ularda o‘zlariga yaqin bo‘lgan katta odamlar va tengdoshlari bilan munosobatda bo‘lish ehtiyoji tug‘iladi. Ular tor doiradan kengroq doiradagi munosobatlarga intila boshladilar. Ular endi kuni-qo‘snilarning bolalari bilan ham jamoa bo‘lib o‘ynaydilar.

Hamma narsani bilib olishga bo‘lgan extiyoj kuchayadi. Bog‘cha yoshidagi bola tabiatiga xos bo‘lgan kuchli ehtiyojlardan yana bir uning xar narsani yangilik sifatida ko‘rib bola uni har tomonlama bilib olishga intilishidir.

Bog‘cha yoshdagi bolalar hayotida va ularning psixik jihatidan o‘sishida qiziqishning roli ham kattadir. Qiziqish xuddi ehtiyoj kabi bolaning biror faoliyatga undovchi omillardan biridir. Shuning uchun ham qiziqishni bilish jarayoni bilan bog‘liq bo‘lgan murakkab psixik xodisa desa bo‘ladi.

Bolaning kamol topishida qiziqishning ahamiyati shundaki, bola qiziqqan narsasini mumkin qadar chuqurroq bilishiga intiladi va binobarin uzoq vaqt davomida qiziqqan narsasi bilan shug‘ullanishdan zerikmaydi. Bu esa o‘z navbatida bolaning diqqati hamda irodasi kabi muhim xislatlarni o‘stirishga va mustaxkamlashishga yordam beradi. Bog‘cha yoshidagi bolalarda sezgi, idrok, diqqat, xotira, tasavvur, tafakkur, nutk, hayol, hissiyot va iordaning rivojlanishi jadal kechadi. Bola ranglarni hali bir-biridan yaxshi farq qila olmaydi. Unga ranglarning farqini bilishga yordam qiladigan o‘yinchoqlar berish lozim(bolalarning qo‘g‘irchoqlari uchun har hil rangli qiyqimlar berish, har hil rangli halqalar, qutichalar va shuning singari narsalar juda yaxshi bo‘ladi).

Bog‘cha yoshidagi bolalar turli narsalarni idrok qilishda ularning ko‘zga yaxshi tashlanib turuvchi belgilariga(rangi va shakliga) asoslansalar ham, lekin chuqur taxlil qilmaydilar.

Bog‘cha yoshidagi bolalar kattalarning yordami bilan suratlarni analitik ravishda idrok qilish qobiliyatiga ega bo‘ladilar. Buning uchun bolalar suratlarni idrok qilayotganlarida kattalar turli xil savollar bilan ularni taxlil qilishga o‘rgatishlari lozim. Bunda asosan bolalar diqqatini:

1. suratning mazmunini(syujetini) to‘g‘ri idrok qilishga,
2. suratning umumiylarini kurinishida har bir tasvirlangan narsalarning o‘rnini to‘g‘ri idrok qilishga,
3. tasvirlangan narsalar o‘rtasidagi munosabatlarni to‘g‘ri idrok qilishga qaratish kerak.

Diqqat har qanday faoliyatimizning doimiy yo‘ldoshidir. Shuning uchun diqqatning inson hayotidagi ahamiyati ham benixoya kattadir. Bog‘cha yoshidagi bolalar diqqati asosan ixtiyorsiz bo‘ladi. Bog‘cha yoshidagi bolalarda ixtiyoriy diqqatning o‘sib borishi uchun o‘yin juda katta ahamiyatga ega. Uyin paytida bolalar diqqatlarini bir joyga to‘plab, o‘z tashabbuslari bilan ma’lum maqsadlarini ilgari suradilar.

Bu yoshidagi bolaning xotirasi yangi faoliyatlar va bolaning oldiga qo‘yilgan yangi talablar asosida takomillasha boradi.

Bog‘cha yoshidagi bolalar o‘zlarining faoliyatlarini uchun qandaydir ahamiyatga ega bo‘lgan, ularda kuchli taassurotlar qoldirgan va ularni qiziqtirgan narsalarni beixtiyor eslarida olib qoladilar.

Bog‘cha yoshidagi bolalar tafakkuri va uning o‘sishi o‘ziga xos xususiyatga ega.

Tafakkur bolaning bog‘cha yoshidagi davrida juda tez rivojiana boshlaydi. Buning sababi, birinchidan, bog‘cha yoshidagi bolalarda turmush tajribasining nisbatan ko‘payishi, ikkinchidan, bu davrda bolalar nutqining yaxshi o‘sgan

bo‘lishi, uchinchidan esa, bog‘cha yoshidagi bolalarning juda ko‘p erkin mustaqil xarakatlar qilish imkoniyatiga ega bo‘lishlari dir.

Bog‘cha yoshidagi bolalarda har sohaga doir savollarning tug‘ilishi ular tafakkurining faollashayotganidan darak beradi. Bola o‘z savoliga javob topa olmasa yoki kattalar uning savoliga ahamiyat bermasalar, undagi qiziquvchanlik susaya boshlaydi.

Odatda har qanday tafakkur jarayoni biron narsadan taajjublanish, xayron qolish va natijada turli savollarning tug‘ilishi tufayli paydo bo‘ladi. Juda ko‘p ota-onalar va ayrim tarbiyachilar ham bolalar ortiqroq savol berib yuborsalar, «kup maxmadona bo‘lma», «sen bunday gaplarni qaerdan o‘rganding», deb jerkib tashlaydilar. Natijada bola o‘ksinib, o‘z bilganicha tushunishga xarakat qiladi. Ammo ayrim passiv va tortinchoq bolalar xech bir savol bermaydilar. Bunday bolalarga turli mashgulotlar va sayoxatlarda kattalarning uzlari savol berishlari va shu bilan ularni faollashtirishlari lozim.

Har qanday tafakkur, odatda biron narsani taqqoslash, analiz va sintez qilishdan boshlanadi. Shuning uchun biz ana shu taqqoslash, analiz va sintez qilishni tafakkur jarayoni deb ataymiz. Sayohatlarlar bolalardagi tafakkur jarayonini faollashtirish va rivojlantirishga yordam beradi. Bolalar tabiatga qilingan sayohatlarda turli narsalarni bir-biri bilan taqqoslaydilar va analiz hamda sintez qilib ko‘rishga intiladilar.

Bog‘cha yoshidagi bolalar nutqi va uning o‘sishi Agar 2 yashar bolaning so‘z zapasi taxminan 250 tadan 400 tagacha bo‘lsa, 3 yashar bolaning so‘z zapasi 1000 tadan 1200 tagacha va 7 yashar bolaning so‘z zapasi 4000 taga yetadi. Demak, bog‘cha yoshi davrida bolaning nutqi ham miqdor, ham sifat jihatidan ancha takomillashadi. Bog‘cha yoshidagi bolalarning nutqini o‘sishi oilaning madaniy saviyasiga bog‘liq

Kattalar bolalar nutqini o‘sirish bilan shug‘ullanar ekanlar, bog‘cha yoshidagi bolalar ba’zi hollarda o‘z nutq sifatlarini to‘la idrok eta olmasliklarini unutmasliklari kerak. Bundan tashqari, bolalarda murakkab nutq tovushlarini bir-

biridan farq qilish qobiliyati ham hali to‘la takomillashmagan bo‘ladi. Tili chuchuklikni tuzatishning eng birinchi shartlaridan biri bola bilan to‘la va to‘g‘ri talaffuz etib, ravon til bilan gaplashishdir. Bog‘cha yoshidagi bolalarda yoqimli va yoqimsiz xis-tuyg‘ular g‘oyat kuchli va juda tez namoyon bo‘ladi. Bog‘cha yoshidagi bolalarning xis-tuyg‘ulari ular organik ehtiyojlarining qondirilishi va qondirilmasligi bilan bog‘liqdir. Bu ehtiyojlarning qondirilmasligi sababli bolada noxushlik(yoqimsiz), norozilik, iztiroblanish tuyg‘ularini ko‘zgaydi.

Katta bog‘cha yoshidagi bolalarda burch xissi – nima yaxshi-yu, nima yomonligini anglashlari bilan ahloqiy tasavvurlari o‘rtasida bog‘liqlik bor. Katta odamlar tomonidan buyurilgan biron topshirikni bajarganlarida mammunlik, shodlik tuyg‘ulari paydo bo‘lsa, biron tartib qoidani buzib qo‘yganlarida xafalik, ta’bi xiralik xissi tug‘iladi.

Shuningdek, bog‘cha yoshidagi bolalarda ma’naviy xissiyotlardan o‘rtoqlik, do‘stlik va kollektivizm xislari ham yuzaga kela boshlaydi.

Bolaning bog‘cha yoshidagi davrida estetik xissiyotlar ham ancha tez o‘sadi. Bog‘cha yoshidagi bolalarda estetik xislarning namoyon bo‘lishini ular biron chiroyli , yangi kiyim kiyganlarida juda yaqqol ko‘rish mumkin.

Bog‘cha yoshidagi bolalarda yoqimli va yoqimsiz xis-tuyg‘ular g‘oyat kuchli va juda tez namoyon bo‘ladi. Bog‘cha yoshidagi bolalarning xis-tuyg‘ulari ular organik ehtiyojlarining qondirilishi va qondirilmasligi bilan bog‘liqdir. Bu ehtiyojlarning qondirilmasligi sababli bolada noxushlik(yoqimsiz), norozilik, iztiroblanish tuyg‘ularini ko‘zlaydi.

Katta bog‘cha yoshidagi bolalarda burch xissi – nima yaxshi-yu, nima yomonligini anglashlari bilan ahloqiy tasavvurlari o‘rtasida bog‘liqlik bor. Katta odamlar tomonidan buyurilgan biron topshiriqni bajarganlarida mammunlik, shodlik tuyg‘ulari paydo bo‘lsa, biron tartib qoidani buzib qo‘yganlarida hafalik, ta’bi xiralik xissi tug‘iladi.

Shuningdek, bog‘cha yoshidagi bolalarda ma’naviy xissiyotlardan o‘rtoqlik, do‘stlik va kollektivizm xislari ham yuzaga kela boshlaydi.

Bolaning bog‘cha yoshidagi davrida estetik xissiyotlar ham ancha tez o‘sadi.

Bog‘cha yoshidagi bolalarda estetik xislarning namoyon bo‘lishini ular biron chiroyli , yangi kiyim kiyganlarida juda yaqqol ko‘rish mumkin. Bu davrda bolalarda avvalo bilish sohalari so‘ngra esa emotsional motivatsion yo‘nalish bo‘yicha ichki shaxsiy xayot boshlanadi. U yoki bu yo‘nalishdagi rivojlashin obrazlilikdan to simvollilikgacha bo‘lgan bosqichlarni o‘taydi. Obrazlilik deganda bolalarning turli obrazlarni yaratish, ularni o‘zgartirish va ularni erkin xarakatga solish, simvollilik deganda esa belgilar sistemasi (matematik, lingvistik, mantiqiy va boshqalar) bilan ishslash malakasi tushuniladi. Maktabgacha yosh davrda ijodkorlik jarayoni boshlanadi. Ijodkorlik layoqoti asosan bolalarning konstruktorlik o‘yinlarda, texnik va badiiy ijodlarida namayon bo‘ladi. Bu davrda maxsus layoqotlar kurtaklarning birlamchi rivojlanishi ko‘zga tashlana boshlaydi. Bilish jarayonlarida ichki va tashqi harakatlarning sintezi yuzaga keladi. Biron bir narsani idrok qilish jarayonida bu sintez persentiv xarakatlarda, diqqatda ichki va tashqi xarakatlar va xolatlar rejasini boshqarish va nazorat etishda, xotirada esa materialni esda saqlab qolish va esga tushurishning ichki va tashqi tuzilmasini bog‘lay olishda ko‘rinadi. Tafakkurda esa amaliy masalalar ishining usullarini bitta umumiy jarayonga birlashtirish sifatida yaqqol nomoyon bo‘ladi. Shuning asosida insoniy intelekt shakllanadi va rivojlanadi. Maktabgacha davrda tasavvur, tafakkur va nutq umumlashadi. Bu esa bu yoshidagi bolalarda tafakkur qilish omili sifatida ichki nutq yuzaga kelayotganidan dalolat hisoblanadi. Bilish jarayonlarning sintezi bolaning o‘z ona tilisini to‘liq egallashi asosida yotadi. Bu davrda nutqning shakllanish jarayoni yakunlana boshlaydi. Nutq asosidagi tarbiya jarayonida bolada elementar ahloqiy norma va qoidalar egalaniladi. Bu norma va qoidalar bola ahloqini boshqaradi.

Bola va atrofidagi kishilar orasida xil munosabatlar yuzaga kelib, bu munosabatlar asosida turli xil motivlar yotadi. Bularning hammasi bolaning

individualligini tashkil etib, uning boshqa bolalardan nafaqat intelekti balki ahloqiy motivatsion jihatdan farqlanadigan shaxsga aylantiradi.

Maktabgacha yoshdagি bolalar shaxsi rivojining cho‘qqisi bo‘lib, ularning o‘z shaxsiy sifatlari, layoqatlari, muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizliklarini anglash, o‘z-o‘zini anglash xissining yuzaga kelgani hisoblanadi.

Bolaning psixik rivojlanishida ularda paydo bo‘ladigan ehtiyojlar va kizikishlar katta ahamiyatga ega . Ular bolani u yoki bu xarakata undovchi omil xisoblanadi, bola kizikkan narsasi bilan uzok vakt shugullana oladi. Bu esa uning diqqati, irodasini rivojlantirishga yordam beradi. Bog‘chada to‘g‘ri yulga kuyilgan tarbiyaviy ishlar bolalarda mexnat faoliyatining dastlabki belgilari hamda kizikishini tarkib toptiradi. Bog‘cha xayotining ko‘p kirrali va sermazmunligi bolalar bilish faoliyatlarining kengayishiga va chukurlashishiga yordam beradi, bu esa uz navbatida idrok, tasavvur, xotira, tafakkur, kabi jarayonlarni rivojlantiradi. Bog‘chadagi tartib intizom va ta’limiy mashulotlar yuksak ijtimoiy, intellektual, axlokiy va gigienik ehtiyojlarning, yuzaga oshishiga sharoit yaratadi.

Emotsional-irodaviy xislatlarning shakllanishida o‘yin, mexnat faoliyatlarining, ta’limiy mashg‘ulotlarning ta’siri katta, Vigotskiyning ta’kidlashicha, bola o‘yinda bemor singari yiglaydi, vrach sifatida unga raxmi keladi, bola tanlagan rol undagi mavjud kechinmalarning amaliy ifodasi gavdalanadi. Bolaning psixik rivojlanish muammosi zamonaviy psixologianing diqqat markazida turadi. Psixologlar fikricha, bolaning psixik xususiyatlarini shakllanishini ijtimoiy omil belgilab beradi deb P.Ya. Galperin, D.K.Elkonin, V.V.Davidov, A.V.Zankov, N.A.Menchenskaya va boshqa psixologlar taklif qilishgan. Demak bolalarda orientir faoliyat va bola psixikasining rivojlanishidagi har bir bosqichidagi faoliyat ko‘rinishlarini shakllanishiga asosiy diqqat qaratilgan. D.K.Elkonin va V.V.Davidov” ta’lim o‘zining bosh rolini aqliy rivojlanishda bolaning bilimlarini o‘zlashtirish orqali hosil qiladi”, deb ta’kidlashgan. Shuning uchun ular bolalarda umumlashgan usullar va anglash usullarini shakllantirib, ular orqali bola o‘quv materialini muvaffaqiyatli o‘zlashtiradi, deb hisoblashgan. A.V.Zankov rivojlangan ta’limga muvaffaqiyatli sharoitlarini mehnatning yuqori

darajasi materialini tez tempda o‘tish bolaga ta’lim jarayonini anglashiga ta’sir ko‘rsatadi, deb ta’kidlagan. A.V.Zaporojets, V.V.Davidov, D.K.Elkoninlarning o‘tkazgan tadqiqotlarida maktabgacha va kichik mактаб o‘quvchilarining imkoniyatlari keng ochib berilgan. Bu maktabgacha tarbiya va boshlang‘ich ta’lim dasturi va dastur tartibi psixologik kriteriyalari orqali boyitilib, tarbiyaning ta’limiy ishida maktabning boshlang‘ich sinflarida yuqori talablarni qo‘yilishiga olib keldi.

### **1.3. Maktabgacha yosh davri bolalarining shaxs sifatida shakllanishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy psixologik omillar**

Mazkur yosh davridagi bolalarning kattalar bilan munosabatga kirishuvining eng muhim xususiyatlaridan biri - ularning xohish-istikclarini boshqarish imkoniyati mavjudligidir. Ularni kattalarning ezgu niyatiga ko'niktirish, ota-onalar va murabbiyalar mayliga bo'ysundirish mumkinligidir. Ularning boshqa yosh davrlaridagi bolalardan farqi ularda nisbatan xotirjam, barqarorroq his-tuyg'ular mavjudligi, ularning affektiv holatlardan uzoqroqlik, nizolarga kam berilishidir. Bunday bolalarda affektiv(jazavali) holat yuz berishi mumkin, lekin u vaqtinchalik bo'lib, yaqqol harakat bilan emas, balki tasavvur obrazlari dinamikasi bilan bog'liq holda sodir bo'ladi. Bevosita idrok qilinmaydigan holatlarga nisbatan his-tuyg'u, murakkab ichki tug'yon va kechinmalarning paydo bo'lishi, keyinchalik emotsiyal o'sish uchun eng qulay shart-sharoitlar yaratadi. L.S.Vigotskiyning tahkidlashicha, bola o'yin faoliyatida bemor singari yig'laydi, o'yinning ishtirokchisi sifatida quvnaydi. Shuning uchun uning kechinmalari bemor to'g'risidagi tasavvur obrazlarining majmuasi bilan ularning nisbatan rang-barangliri bilan aniqlanadi. Bola tanlagan rol undagi mavjud kechinmalarning amaliy ifodasi kabi gavdalanadi, ertaklar tinglashda bolada qahramonlar to'g'risidagi dastlabki kechinmalar paydo bo'ladi, bolaga emotsiyal ta'sir etish imkoniyati tug'iladi, kechinmalarni aks ettirish esa tasavvur doirasida vujudga keladi.

Uch yoshda harakatni muvofiqlashtirish jarayonining takomillashuvi bolaga yugorganida, bir joyda tik turganida muvozanatni saqlash imkonini yaratadi. Buning natajasida bola mustaqil holda turli harakatlarni amalgalash oshira boshlaydi. Jismoniy jizhatdan mustaqillikka erishish bolada erkin, kattalarning nazoratisiz, o'z holicha qandaydir ishlarni bajarish, umuman mikro va makro muhitda shaxs sifatida yashash istagini tug'diradi.

Xususan bolada ikkinchi signallar tuzilmasining paydo bo'lishi mazkur davr uchun mazkur ahamiyat kasb etib, u eng qulay(senzitiv) o'sish bosqichi vazifasini o'taydi. Ikkinci signallar tuzilmasining paydo bo'lishi nutq va nutq faoliyatining o'sishi bilan bevosita aloqador bo'lib, biri ikkinchisini taqozo qiladi. Nutq jarayonining

vujudga kelishi psixofiziologiyaning shartli reflekslar qonunlari ta'sirining mahsuli sifatida sodir bo'ladi. Bolada nutq reflekslari kattalarga taqlid qilish asosida yoki ularning kichkintoylar bilan uzluksiz muloqotga kirishuvi orqali hosil bo'ladi hamda ota-onalar va tarbiyachilarning so'z va atamalarni to'g'ri talaffuz qilishni o'rgatishlari oqibatida jadal surhatlar bilan takomillashadi.

Yuqoridagi umumiylar xulosalar asosida aytish mumkinki, uch yoshgacha davr nutq va nutq faoliyatini eng oqilona namoyon qilish va to'g'ri, maqsadga muvofiq rivojlantirish bosqichi hisoblanadi. Binobarin, har bir yosh davrining o'ziga xos qulay o'sish pallalari, imkoniyatlari va o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Bu narsa umumiylar psixologik qonuniyatlarga suyangan holda talqin etiladi, shu bilan birga yetakchi faoliyatning roli inobatga olinadi.

Bolaning tik yurishga odatlanishi, fazoviy qonuniyatlar, o'ziga xosliq bog'liqdagi mavjudotlarni to'g'ri idrok qilish kabilar unda turli psixologik sifatlarni shakllantiradi, shuningdek mutlaqo yangi shaxs xususiyatlarni vujudga keltiradi. Unda harakat shakllariga nisbatan sinikovlik uquvi ko'proq o'sadi, vaqtini tasavvur qilish, vaqt o'lchovlariga qiziqish tuyg'usi uyg'onadi. O'yin faoliyatida, tengdoshlari va kattalar bilan bevosita muloqotga kirishishda vaqtni, fazoni va harakatni idrok qilish malakasi takomillashib boradi, mazkur psixologik kategoriylar sifat jihatdan yangi rivojlanchish bosqichiga ko'tarila boshlaydi.

Mazkur davrda nutq mazmunliroq, nutq faoliyati esa grammatnq morfologik va sintaksistiv nuqtai nazardan to'g'ri tuzilishga ega bo'la boradi, bolaning bu boradagi faolligi mislsiz darajada o'zgaradi. Atoqli psixologlar va o'zimizning kuzatishlarimizga qaraganda, uch yoshli bola soat sayin bir nechtadan(ona tili yoki begona tilga doir) so'zlarni o'zlashtiradi va o'zining nutq boyligiga aylantiradi. Nutq faoliyatining rivoji o'zgalar nutqini oqilona idrok qilish va tushunish imkonini yaratadi, shaxslararo muomala ko'lamina yanada kengaytiradi.

Shunga o'xshash o'zgarishlar bola atrof-muhit to'g'risidagi ma'lumotlarni, axborotlarni, ilmiy bilimlar va ijtimoiy ko'nikmalarni egallashi uchun puxta zamin hozirlaydi. Natijada uch yoshlilar psixikasi yangiliklarni aks ettirish va ulardan

ta`sirlanishdek murakkab funksiyani bajara boshlaydi. Shular sababli bu yoshdagi bolalar o`zining ko`rganlarini, eshitganlarini tez idrok qiladilar va eslab qoladilar, hatto ularni tushunishga intiladilar, ular o`z bilimdonliklarini namoyish etishga, o`zlarini shaxs sifatida ko`rsatishga harakat qiladilar. O`zining kattalar orasidagi o`rnini topish istagi, hissi «Men davri»ni vujudga keltiradi. Bolaning yangi ehtiyoj va intilishlari kattalar tomonidan g`ayritabiyy, qabul qilinishi ular o`rtasida anglashilmovchilikni keltirib chiqaradi. Unda kattalarning ko`rsatmasi, tavsiyasi, iltimosi, bo`yrug`i va tazyiqiga qarshilik ko`rsatish tuyg`usi paydo bo`ladi. Shu tariqa shaxslararo munosabatda ziddiyatlar, ichki nizolar, psixologik inqiroz namoyon bo`ladi. Bularning barchasi «Men davri»ning hosilasi bo`lib, bola shaxs sifatida shakllanayotganidan dalolat beradi. Inqirozning sabablari har xil bo`ladi.

Inqiroz davrida bolaning kattalarga qarshilik ko`rsatishi ham turli ko`rinishlarga ega bo`lib, ular o`tkinchi psixologik holat va hodisaga o`xshaydi, Lekin oila va bog`chada qiyinchiliklarni yengish jarayonida bolaning shaxsiga uning o`ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda to`g`ri va okilona yondashish uni inqirozdan ruhan mutlaqo sog`lom olib chiqish imkonini yaratadi. Quyida ana shu karshiliklarning ayrim ko`rinishlari haqida qisqacha to`xtalamiz.

Ko`pchilik psixologlarning tadqiqotlaridan va o`zimizning kuzatishlarimizdan ma'lumki, bolalar mazkur inqiroz davrida bir necha ko`rinishdagi qaysarlik yoshini bosib o`tadilar.

Ana shu ko`rinishlarning bittasi biz nazarda tutgan davrga, ya`ni bolaning 3 yoshiga to`g`ri keladi. Shu davrda uning ruhiy dunyosida sifat va miqdor jihatdan turli o`zgarishlar ro`y beradi. Bu o`zgarishlar uning olamni o`zicha kashf qilayotganiga, psixikasi ma'lumot va axborotlar bilan soat sayin boyib borayotganiga bog`liqdir. Ayni shu yoshda bolada o`z irodasiga ishonch hissi tug`iladi, u o`zligini anglay boshlaydi. O`zligini anglash qarama-qarshiliklarni, ziddiyatlarni yengish bilan amalga oshadi.

Hayot va faoliyatda har bir bolaning oldiga aniq, yaqqol talab va topshiriqlar qo`ymaslik, homiylik qilmaslik bolaning ruhiyatiga qattiq ta`sir etadi, u o`kinadi va ichidan kuyunadi. O`zining himoyachisi yo`qligini his qilish ham bolada o`jarlikni

yuzaga keltiradi. Boshqacha aytganda, bolaning ruhiy olamida kattalarga nisbatan paydo bo‘lgan gina-adovatuni o‘jarlikka yetaklaydi. Shaxslararo munosabatdaadolat qaror topgunicha, ziddiyatning bosh sababchisi o‘z xulqiga iqror bo‘lqunicha qarama-qarshilik davom etadi.

O‘jarlik paydo bo‘lgan bolaga muomalada uni behuda erkalatmasliq maqtamaslik, uning barcha orzu-istiklarini qondirmaslik kerak. Xoh oilada, xoh bog‘chada-hammaga bir xil, bir maromda ehtibor berish, bolani o‘z holiga tashlab qo‘ymaslik o‘jarlikning oldini olishga xizmat qiladi.

Bolalarda vujudga keladigan illatlar-o‘jarlik, qiyinlik, qaysarlik va hokazolarning sababini u kamol topayotgan muhitdan, unga ko‘rsatilayotgan tarbiyaviy ta`sirdan, sharoitdan, shaxsni shakllantiri jarayonidagi kamchiliklardan qidirish lozim. Eng muhimi, ota-onalar ham, tarbiyachilar ham boladagi salbiy ruhiy holat o‘tkinchi ekanini bilishlari, uning sabablarini haqqoniyan iqlashlari, bola bilan umumiyl til topishlari, unga nisbatan samimiyl munosabatda bo‘lishlari zarur.

Hayot va faoliyatda kattalar bolaning shaxsini hurmat qilishlari, uning ehtiyojlari bilan hisoblashishlari, his-tuyg‘usini boshqarish imkoniyatlarini aniqlashlari kerak. Bolani sevish, uning yosh xususiyatlarini hisobga olish, qiziqishlariga ehtibor berish o‘jarlikning oldini olishning muhim shartidir.

Uch yoshli bola jamoat joylarida, ko‘pchilik orasida o‘zini qay tarzda tutishi kerakligini bilmaydi. Shuning uchun buni kattalar tushuntirishlari, amaliy ko‘rsatmalar berishlari shart. Biroq bu ish harakat bilan uzviy bog‘lanmasa, ko‘zlangan natijaga erishiig mumkin emas. O‘yin faoliyatida bola shaxsida xulq va odob malakalari astasekin shakllantiriladi.

Uch yoshlilar shaxsini shakllantirishda ularni boshlagan ishni oxiriga yetkazishga, qiyinchiliklarni yengishga, sabr-toqatga, asabiylashmaslikka, bardoshlilikka, yig‘idan o‘zini tiyishga, ortiqcha hatti-harakat qilmaslikka o‘rgatish juda katta ahamiyatga ega. Bolada ijobjiy ahloqiy ko‘nikma va malakalar, odatlar mustaqil ishlarni bajarishga intilishda vujudga kela boshlaydi. Shuning uchun kattalar bolani topshiriqni qanday bajarishini nazorat qilib turishlari lozim.

Bolaning shaxsi tarkib topishida kattalarning ahloqiy ibrati alohida ahamiyatga molikdir, Lekin yuksak fazilatlarni, insoniy xislatlarni shakllantirishda shuning o‘zigma yetarli emas, chunki bola o‘zicha faol harakat qilmasa, hamkorlikdagi faoliyatda ishtirok etmasa, unda hech mahal xulq-atvor ko‘nikmalari hosil bo‘lmaydi. Ma’lumki, o‘yin faoliyatida va muloqotlarda bolaning shaxsiy fazilatlari hamda xarakter xislatlari uning nutqiga bog‘liq holda namoyon, bo‘ladi. Bolaning nutq faoliyati qanchalik ravon va boy bo‘lsa, u ona tilining durdonalaridan unumli foydalana olsa, uning o‘zaro fikr almashishi ham shunchalik qulay va oson amalga oshadi. Kamolotning mazkur pallasida egotsentrik nutq muhim ahamiyat kasb etadi. Harakatli va rolli(syujetli va mazmunli) o‘yinlar(chunonchi, «Millitsioner», «Sotuvchi», «Shifokor», «Qorbobo» va boshqalar) jarayonida amaliy xatti-harakat bilan uzviy bog‘liq holda bola shaxsida insoniy xislatlar tarkib topa boradi. O‘yin faoliyati va turli o‘yinlar bolada irodaviy sifatlarni takomillashtirishda, his-tuyg‘uni boshqarishda yetakchi faoliyat vazifani o‘taydi.

Rolli o‘yin - maktabgacha yoshdagagi bolalarning yetakchi faoliyati. Rolli o‘yin mazkur yosh davridagi bolalarning eng muhim faoliyati bo‘lib, ular bunday o‘yinda go‘yo katta yoshdagagi odamlarning barcha vazifalari va ishlarini amalda bevosita bajaradilar. Shu boisdan o‘yin faoliyati uchun maxsus yaratiladigan sharoitlarda ijtimoiy muhit voqealari, oilaviy turmush hodisalari, shaxslararo munosabatlarni umumlashtirgan holda aks ettirishga harakat qiladilar. Bolalar kattalarning turmush tarzi, his-tuyg‘usi, o‘zaro muoma-la va muloqotlarining xususiyatlarini, o‘ziga va o‘zgalarga, atrof-muhitga munosabatini yaqqol voqelik tarzida ijro etish uchun turli o‘yinchoqlardan, shuningdek, ularning vazifasini o‘tovchi narsalardan ham foydalananadilar. Ammo shuni alohdda tahkidlash lozimki, ijtimoiy va maishiy voqelikning barcha jabhalarini qamrab oladigan rolli o‘yin ularda birdaniga emas, balki turmush tajribasining ortishi, tasavvur obrazlarining kengayishi natijasida vujudga keladi va mohiyati va mazmuni jihatdan oddiydan murakkabga qarab takomillashib boradi.

Shunday qilib, psixologik adabiyotlar tahliliga tayanib maktabgacha yoshdagagi bolalarning o‘ziga xos xususiyatlari qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

1) bola odamlarning faoliyati, ularning predmetlarga munosabati va o‘zaro muomalasiga qiziqadi;

2) bolalar rolli o‘yinda atrofdagi voqelikning eng tashqi ifodali, jo‘shqin his tuyg‘uli jihatlarini aks ettiradilar;

3) rolli o‘yinda bola kattalar bilan bir xil sharoitda, yagona zaminda yashayotganini his etgan holda o‘z istagini amaliyotga tatbiq qiladi;

4) kattalarning hayoti va faoliyatiga kirish bolaning tasavvuri timsollari tariqasida namoyon bo‘lsa ham, umuman uning chinakam shaxsiy hayotida o‘chmas iz qoldiradi.

Demak, psixik rivojlanishdan bialogik va ijtimoiy omillar bolani psixik rivojlantishida shaxs, inson muammosi psixologiyaning markazida turgan eng qiyin muommolardan bo‘lib hisoblanadi. Ongli inson tarbiyasini psixik rivojlantirish jarayon qonuniyatlarni bilmasdan tarbiyalash aqlga sig‘maydi. Inson shaxsi qaysi jarayonga kattalar tomonidan maqsadga yo‘naltiradi. Ushbu jarayonni boshqarishdagi imkoniyatlar qanday? Bu savollarga javob izlashda odam nima bilan tug‘iladi, hayot jarayoni va faoliyatida nimalarga erishadi. Ta’lim-tarbiya tizimini oydinlashtirish orqali amalga oshirish zarur. Dialetik, materialistik, biologik va ijtimoiy munosabatlarni o‘zaro insondagi psixologik ilmda dialetik, materialistik o‘rganishga ruxsat beriladi. Bunda inson «barcha jamiyat munosabatlarida mavjud».

Inson shaxs sifatida ijtimoiy omilarning ta’siri ostida shakllanadi. Psixik rivojlanish omili sifatida tushunish qiyin. U rivojlanishda o‘zidan tabiiy va psixik kabi tabiat omillarini ya’ni fizik olam, ma’lum bir ta’sir o‘tkazadi; havo, quyosh, suv, elektromagnit maydoni, yerning tortilishi, o‘suvchanlik, iqlimining o‘ziga xosligi, tabiat omillar muhim rivojlanishini belgilamaydi, balki uning ta’siri bevosita nomoyon bo‘ladi. Ayniqsa bunga ijtimoiy olimlar orqali, katta odamlarning mexnat faoliyati orqali yuzaga keladi.

Bolani psixik rivojlantirishdagi asosiy omil insonlar bilan hayot kechirishida aks etadi. Boshqa odamlar bilan muloqatsiz bola psixikasi rivojlanmaydi. Tarixdan bunday vaziyatlar yani kichik bolalarni yirtqich hayvonlarning tarbiyalashi bir

necha ishlarda o‘z ichiga olganligi bizga ma’lumdir. Odamlar tomonidan tug‘ilib, ammo xayvonlar tomonidan tarbiyalangan bolalar odamlarga qaytganda undagi muhim insoniyat sifatlari yo‘qolib ketgan edi. Yani ularda nutq, aqliy qobiliyat xis, o‘zini anglash rivojlanganligi tadqiqotlarda aniqlangan.

Bola insonlar xulqi tajribasini, mehnat quollaridan foy- dalanish tajribani va hayotni qunt egallashni faqat odamlar bilan muloqat qilganda o‘rganadi-yu; katta avlod kichiklarga o‘zlarining ilmiy asarlarida jo qilgan ahloqiy normalarda va inson xulqi qoidalarida, mehnat quollarida va belgilar tizimida, asrlar davomida yig‘ilgan boyliklarni berishadi. Insonlar yaratgan tarixiy iqtidorlik xususiyati va vazifalarini shakllanishi bilan o‘tadi.

Bolani rivojlanishi nafaqat oila davrasida (oila, tengdosh, qarindoshlari, qo‘shnilari) asosan keng ma’noda ijtimoiy muhit ta’siri, turli xil ommaviy vositalar qurshovida bolani o‘rab turgan hayotiy holatlarda amalga oshiriladi. Bolaning faolligini tashkil etishni asosiy shakllari ta’lim va tarbiya hisoblanadi. Jamoa ta’siri tarbiyasi bolalarning psixik rivojlanishini, uning bilim olishini, qobiliyatlarini “kovlab, izlab, topish” topish turlari (usullari)ni insonlarga xos bo‘lgan munosabatni aniqlaydi

Bolani psixik rivojlantirishdagi harakatlanuvchi kuchlar rivojlanishning ikki diometrli qarama-qarshi konsepsiiali ya’ni dialektik-materialistik va metofiziklarga ajratilgan.

Birinchi konsepsiyada harakat o‘z harakati soyasida uning harakatlantiruvchi kuchi uning manbasi sifatida yuzaga keladi.

Ikkinchi konsepsiyada asosiy diqqat aynan “o‘z” harakati manbasini anglashga intilishdir.

Birinchi konsepsiya o‘lik, rangsiz, quruq narsa sifatida namoyon bo‘lishi bo‘lsa, ikkinchisi hayotiy, jami borliqni o‘z harakatining kalitini beradi.

Dialektik-materialistik konsepsiya fan rivojlanishi nafaqat miqdoriy o‘zgarishi bilan balki, shakl va xususiyatlarni sifatli paydo bo‘lishida deb tushuniladi. Bolaning pisxik rivojlanish mohiyatini asta-sekin miqdoriy yig‘ilmalarda, sakrash yo‘li bilan sifatli o‘zlashtirishadi. Masalan, alohida tovushlarni jamlagan bola

ma'lum paytda so'z talaffuz qilishni boshlaydi. Keyingi davrda rivojlanishning yangi fazilati so'zlarni gapga qo'shish xislati paydo bo'ladi. **Xuddi** miqdoriy fazilatli jarayon o'zgarishi bola shakllanayotgan psixikani turli zonalarida fikrlash faoliyatida, sezgida, atrof-muhitga harakati va odatlarida ongida kuzatish mumkin. Rivojlanishning metofizik konsensiyasi uning manbasini aniqlamaydi, rivojlanishini ixtiyoriy hisoblaydi, ta'sirsiz jarayonlar sababini tushuntirib bo'lmaydi, shuning uchun ham shu jarayonni boshqarish imkoniyatlari haqidagi masala avtomatik ravishda olib ta'minlanadi.

Bog'cha yoshidagi bolalar shaxsining shakllanishiga ko'ra, bu davrni uch bosqichga ajratish mumkin:

- birinchi davr - bu 3-4 yosh oraligida bo'lib, bola emotsiyal jihatdan o'z-o'zini boshqarishning mustahkamlanishi bilan bog'liqdir;
- ikkinchi davr - bu 4-5 yoshni tashkil qilib ahloqiy o'z-o'zini boshqarish;
- uchinchi davr esa shaxsiy ishchanlik va tadbirkorlik xususiyatining shakllanishi bilan xarakterlanadi.

Maktabgacha davrda ahloqiy tushunchalar borgan sari qatiylasha boradi. Ahloqiy tushunchalar manbai sifatida, ularning ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullanayotgan kattalar, shuningdek, tengdoshlari ham bo'lishi mumkin. Ahloqiy tajribalar asosan muloqot, kuzatish, taqlid qilish jarayonida, shuningdek, kattalarning ayniqsa, onalarning maqtovi va tanqidlari ta'sirida o'tadi va mustahkamlanadi. Bola doimo baho, ayniqsa maqtov olishga harakat qiladi. Bu baho va maqtovlar bolaning muvaffaqiyatga erishishga bo'lgan harakatlarining rivojlanishida, shuningdek, uning shaxsiy hayoti hamda uning kasb tanlashida ahamiyati juda kattadir.

Bog'cha yoshidagi davrda bolalarda muloqotning yangi motivlari yuzaga keladi. U shaxsiy va ishbilarmonlik motivlaridir. Shaxsiy muloqot motivlari - bu bolaning tashvishga solayotgan ichki muammolari bilan bog'liq, ishbilarmonlik motivlari esa u yoki bu ishni bajarish bilan bog'liq bo'lgan motivlardir. Bu motivlarga asta-sekinlik bilan bilim,

ko‘nikma va malakalarni egallash bilan bog‘liq bo‘lgan o‘qish motivlari qo‘yiladi. Bu motivlar ilk bolalik davridan boshlanib, yuzaga keladigan bolalarning tabiiy qiziquvchanligi o‘rnida paydo bo‘ladi. O‘zini namoyon qilish motivlari ham bu yoshda yaqqol namoyon bo‘ladi. Bu motiv, asosan, bolalarning syujetli-rolli o‘yinlarda asosiy rolni egallahsga, boshqalar ustidan rahbarlik qilishga, musobaqaga kirishishga qo‘rmasligida, nima bulganida ham yutishga harakat qilishlarida ko‘rinadi. Maktabgacha yosh davri bolalari uchun kattalar beradigan baholari juda muhim. Bolalar birinchi navbatda ma’naviy ahloq me’yor va qoidalarini, o‘z majburiyatlariga munosabat, kun tartibiga rioya etish, hayvon va narsalar bilan muomala qilshp me’yorini egallaydilar. Bunday me’yorlarni egallash bu yoshdagi bolalar uchun qiyin hisoblanib, ularni yaxshi o‘zlashtirishi uchun syujetli-rolli o‘yinlar yordam berishi mumkin. Bog‘cha yopshning oxirlariga kelib, ko‘pchilik bolalarda aniq bir ahloqiy qarashlar tarkib topadi, shuningdek, odamlarga munosabat bilan bog‘liq bo‘lgan shaxsiy sifatlar ham shakllanadi. Kishilarga nisbatan diqqat-e’tibor, mehribon bo`lishi xususiyatidir. Katta yoshdagi brlalar ko‘p hollarda o‘z xatti-harakatlari sabablarini tushuntirib bera oladilar.

3-3,5 yoshlar oraligida o‘zlarining muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizliklariga o‘z munosabatlarini bildiradilar va bu munosabat, asosan, ularning uzlariga beradigan baholari asosida shakllanadi. 4 yoshli bolalar esa o‘z imkoniyatlarini real baholay oladilar. Lekin, 4-5 yoshli bolalar hali shaxsiy xususiyatlarini idrok e’shshga va baholashga qodir emaslar, shuningdek o‘zlari haqida ma’lum bir xulosani bera olmaydilar. o‘z-o‘zini anglash layoqati katta bog‘cha yoshidan rivojlanib, avval u qanday bo‘ld-anini va kelajakda qanday bo‘lishini fikrlab ko‘rishga harakat qiladi. Bu esa bolalar beradigan “Men kichkina paytimda qanlay bo‘lgan edim?”, “Men katta bo‘lganimda qanday bo‘laman?» singari savollarida ko‘rinadi. Kelajak haqida fikr yuritib, bolalar kelgusida kuchli, jasur, aqli va boshqa qimmatli insoniy fazilatlari ega bo‘lishiga harakat qiladilar.

Kichik va o‘rtalagi yoshida bola xarakterining shakllanishi davom etadi. U asosan, bolalarning kattalar xarakterini kuzatishlari asosida tarkib topadi. Shu yillardan boshlab, bolada, ahamiyatli hisoblangan - iroda, mustaqillik. va tashabbuskorlik kabi ahamiyat shaxsiy xususitlar rivojlanma boshlaydi. Katta bog‘cha yoshida bola atrofidagi odamlar bilan turli faoliyatlarda muloqot va munosabatlarga kirishishga o‘rgana boshlaydi. Bu esa unga kelajakda odamlar bilan muloqotga kirisha olishida, ish bo‘yicha va shaxsiy munosabatlarini samarali o‘rnata olishida foyda keltiradi. Bu yoshdagi bolalar shaxsining shakllanishida ularning ota-onalari haqidagi fikrlari va ularga beradigan baholari nihoyatda ahamiyatlidir.

Bog‘cha yoshidagi bolalarning xayoli asosan, ularning turli-tuman o‘yin faoliyatlarda o‘sadi. Biroq, shu narsa diqqatga sazovorki, agar bog‘cha yoshidagi bolalarda xayol qilish qobiliyati bo‘lmaganda edi, ularning xayoli ham xilma-xil bo‘lmas edi. Bog‘cha yoshidagi bolalarning xayollari turli xil mashg‘ulotlarda ham o‘sadi. Masalan, bog‘cha yoshidagi bolalar loydan turli narsalar yasashni, qumdan turli narsalar qurib o‘ynashni va rasm solishni yaxshi ko‘radilar, Ana shunday mashg‘ulotlar bolalar xayolining o‘sishiga faol ta’sir qiladi.

Bog‘cha yoshidagi bolalar xayolining o‘sishiga faol ta’sir qiluvchi omillardan yana biri - ertaklardir. Bolalar hayvonlar haqidagi turli ertaklarni eshitganlarida shu ertaklardagi obrazlarga nisbatan ma’lum munosabatlari yuzaga keladi.

Bog‘cha yoshidagi bolalar hissiyoti va uning o‘sishi. Bog‘cha yoshidagi bolalarda yoqimli va yoqimsiz his-tuyg‘ular g‘oyat kuchli va juda tez namoyon bo‘ladi. Bu yoshdagi bolalarning his-tuyg‘ulari ko‘p jihatdan ularning organik ehtiyojlarining qondirilishi va qondirilmasisligi bilan bog‘liqdir. Bu ehtiyojlarning qondirilmasisligi sababli bolada noxushlik (yoqimsiz), norozilik, iztiroblanish tuyg‘ularini qo‘zg‘aydi.

Katta bog‘cha yoshidagi bolalarda burch hissi - «nima yaxshi-yu», «nima yomon»ligini anglashlari bilan ularning ahloqiy tasavvurlari orasida bog‘liqlik bor. Katta odamlar tomonidan buyurilgai biron topshiriqni bajarganlarida mammunlik, shodlik tuyg‘ulari paydo bo‘lsa, biron tartib qoidani buzib qo‘yganlarida xafalik, ta’bi xiralik hissi tug‘iladi.

Shuningdek, bog‘cha yoshidagi bolalarda ma’naviy hissiyotlardan o‘rtoqlik, do‘stlik va jamoachilik hislari ham yuzaga kela boshlaydi. Bolaning Bog‘cha yoshidagi davrida estetik hissiyotlari ham ancha tez o‘sadi, Bog‘cha yoshidagi bolalarda estetik hislarning namoyon bo‘lishini, ayniqsa, ularning chiroyli, yangi kiyim-bosh kiyganlarida juda yaqqol ko‘rish mumkin.

## **II.BOB: Maktabgacha yoshdagi bolalar shaxsini rivojlanishida oilaviy munosabatlarning o`rni.**

### **2.1.Bola tomonidan ota-onalarning va ota-onalikning idrok etilishi.**

Bolaning kelajagi, uning shaxs bo`lib kamol topishi ko`p jihatdan ota-onalasi, u to`g`rida farzandda shakllangan tasavvurlarga bog`liq ekanligi psixologlar tomonidan ancha batafsil o`rganilgan. Tadqiqotlarda aniqlanishicha, bolaning o`z oilasi to`g`risidagi tasavvurlari ko`pincha ota-onaning tasavvurlari va asl holat bilan qisman mos keladi. Odatda ota-onalasi o`z farzandi uchun qo`lidan kelgan barcha choralarini ko`rayotganday, buni bola anglashini va undan hamisha minnatdor bo`lishi kerakligini kutadi, lekin bolalar bu xususda turlicha tasavvurga ega bo`ladilar. Mehribon ota-onalasi og`ushida ayrim bolalar o`zlarini baribir yolg`iz, kemtik, kamsitilgan his etadi. G.T. Xomentauskas (1989) oilada ota-onalasi xulqatvori va bolaning bu xatti-harakatlarni idrok qilishi va ota-onaga munosabatining 5 ta asosiy ko`rinishlarini tahlil qilgan:

Ota-onalasi va bola munosabatlari demokratik tamoyillarda amalga oshadigan oilada bolada o`zi va ota-onasi to`g`risida quyidagicha tasavvur shakllaandi: “Meni sevishadi va men kerakman, shuning uchun men ham ularni juda sevaman”. Bunday bola psixologiyasi va xarakterida ustuvor fazilatlar sifatida adekvat o`z-o`zini baholash va insonlarga ishonch, har qanday yaxshi narsalardan, jumladan, ota-onalasi bilan yaqin, samimiy munosabatlar quvonish, o`ziga ishonch, xatoliklardan cho`chimaslik, ayb ish qilib qo`yganda ham unchalik qayg`urmaslik, zaruratga qarab iltimoslar qilish va bunda real ko`mak olishga umidvorlik, ota-onaning hayotdagi o`rni va ishonchlarini, umid va istaklari bilan hisoblashish kabilarni sanash mumkin.

Bolaga nisbatan haddan ziyod mehribonlik (giperproteksiya), e'tibor ko`rsatilgan oilada bola “Meni sevishadi va men kerakman, ular meni deb yashashadi”, degan tasavvur mavjud bo`ladi. Bunday oilada bolalar o`zining borligidan, tug`ilganligidan mag`rurlanib yashaydi va shuning uchun har qanday tilak va xohish amalga oshishiga ishonadi. Odatda bunday bolaning tug`ilishini ota-onalasi uzoq vaqt kutgan bo`ladi va buni ular hadeb bolaga eslataveradi, shuning

uchun ham bola juda egoist bo`lib ulg`ayadi, ota-onasining nochorligi to`g`risidagi tasavvur o`zining ko`p narsalarga qodirligi bilan uyg`unlashadi. Tantiq bolada o`zi to`g`risida go`yoki o`ta iqtidorli ekanligi fikri ustuvor bo`ladi, chunki ota-ona uning ayrim, ahamiyatsiz yutuqlarini ham osmonga ko`taradi.

Yuqoridagi holatning aksi, ya'ni, bolaga nisbatan e'tiborsizlik, mehrsizlik bo`lgan oilada bolaning tasavvuri quyidagicha bo`ladi: “Meni yoqtirishmaydi, lekin men o`zim harakat qilib, ularga yaqinlashishim kerak”. “Men yaxshi bola emasman”, degan tasavvur odatda bolada qator jiddiy salbiy sifatlarning paydo bo`lishiga olib keladi. Masalan, o`ziga bo`lgan bahoning pastligi, o`zini aybdor deb hisoblashning yuqoriligi, ko`p narsalardan hadiksirash, ayb ish qilib qo`yishdan cho`chish, kayfiyatning beqarorligi va shunga o`xshash. Bunday oilada ma'naviy muhit yaxshi bo`lmaganligi sababli bola salga yig`laydigan, “qo`rqan oldin musht ko`taradi”, deganlariday, har bir yaxshi yoki yomon ishni qilib qo`yib, o`zini oqlashga intilish psixologiyasi paydo bo`ladi. Aslida bola o`zining kutilmagan ekanligini, ota-onalari uni vaziyat taqozosi, tasodif tufayli dunyoga keltirishganligini yaxshi biladi. Chunki bu haqda ota-onalar uning oldida gapiraveradilar.

Ota-onalari mehriga to`ymagan, unga erisholmagan bola salbiy hissiy kechinmalarning keyingi bosqichiga o`tadi: “Sizlar meni xafa qilyapsizlar, men ham shunga munosib javob beraman”. Bunday sharoitda bola ataylab, ota-onasiga yoqmaydigan qiliqlar qiladi, aytganlarining teskarisini bajaradi, tobora ota-ona uchun ham u bilan bo`ladigan muloqotlar og`ir botadigan bo`lib boradi. Qasoskor bola ko`pincha ota-onalari talablarining teskarini qilib, ularning asabiga tegadigan, boshqarib bo`lmaydigan qaysar va ko`pincha jinoyat yo`liga ham kirib ketadigan insonga aylanadi.

Ba'zan ota-onalari mehrsizligidan aziyat chekkan bola kurashib charchaydi: “Meni sevishmaydi, kerak emasman, meni tinch qo`yinglar”, degan ma'noda bola o`z nochorligini ifodalay boshlaydi. Bunday oiladagi vaziyat juda og`ir bo`lib, bola o`zini yolg`izlikka mahkum etadi, hammadan qochadi, o`smirlar o`rtasida sodir bo`ladigan suitsid holatlarining aksariyati ana shu psixologik vaziyatdan kelib

chiqadi.

Bolani asrab olish. Ayrim holatlarda bola begona shaxslar tomonidan asrab olinadi va qonuniy ro`yxatdan o`tkaziladi. Bunday holatlarda ota-onalik – bola munosabatlarida sun'iylik elementlari ko`p bo`ladi, chunki agar bolani chaqaloqligidan asrab olgan bo`lsa, bola ularni tabiiy idrok etaveradi. Lekin ota-onalik uchun unga ko`nikish muammosi yuzaga keladi. Shu sababli ham bunday oilalardagi shaxslararo munosabatlar ko`p hollarda yashirin yoki ochiq ravishda tarang bo`ladi.

Bolani saqlab olgan er-xotindagi ota-onalik motivatsiyasi aslida boshqa toifalardan qolishmaydi. Ba'zan hattoki, kuchli ham bo`ladi. Chunki asrab olishga majbur qilgan motivlar bepushtlik, kech turmush qurish yoki o`z farzandining nobud bo`lganligi bo`lishi mumkin. Shuning uchun bunday oilalardagi ota-onanining tarbiya uslubi giperproteksiya, hattoki, haddan ziyod giperproteksiya o`xshaydi va shunga yarasha salbiy oqibatlarga ega.

Yana bir sabab – odatda bola asrab olishga axd qilgan er-xotinlar bolani kutadilar, kutishlar mutivatsiyasi qanchalik kuchli bo`lsa, bolani erkalatib yuborish yoki unga nisbatan talabalar qo`yish shunchalik katta bo`ladi.

Uchinchidan, bola boshqa insonlardan dunyoga kelgani uchun uning genlarida o`sha haqiqiy, tabiiy ota-onanining sifatlari bo`lib, u ba'zan asrab olgan ota-onaga o`xshamaydi. Texass shtatida 10 yil mobaynida o`tkazilgan tadqiqotlar natijasini tahlil qilgan rus olimasi Ravich-Sherbo I.V. (2002) bunday bolalardagi shaxsiy va intellektual ko`rsatkichlar tabiiy ota-onalar sifatlariga asrab olgan ijtimoiy ota-onalarnikiga nisbatan ancha yaqin bo`lishini isbotladi. Ya'ni, qanchalik urinmasin, asrandi bolada o`sha tuqqan onasi va otaning sifatlari ko`rinaveradi. Ayrim ko`nikmalar, odatlar, xarakter xususiyatlari asrab olganlarga yaqin bo`lishi mumkin. Shu bois ham ba'zi asrab oluvchi ota-onalar muayyan muddatdan keyin asrandini etimxonalarga qaytaradilar, bu bilan ular bolaning kelgusi taqdiriga yanada murakkab chizgilarni belgilaydi, dilini og`ritadilar.

Asrandi bolalar muammosi O`zbekistonda ham mavjud. Bizda hozirgi paytda 7 mingdan ziyod bola yaqin qarindoshlar yoki mahalladagi oliyjanob insonlar

tarbiyasidadir. Ular soni Mehribonlik uylaridagi chin etimlar sonidan ortiqligi xalqimizning asl tabiatidagi odamiylik, oliyjanoblik xislatlari bilan bog`liq. Lekin nima bo`lganda ham bizda bolani o`z ota-onasi tarbiyasiga berish an'anaga aylangan. Oilaviy etimxonalarda ham yaqinlarning etim bolalari va turli sabablarga ko`ra ota-onadan judo bo`lgan qo`shni bolalar tarbiyalanadilar.

## **2.2.Sibling maqomining bola va kattalar munosabatiga ta'siri**

A.Adler oilashunoslik fanida ilk marotaba bola shaxsining shakllanishi va rivojlanishi uning oilasidagi aka-ukalar va opa-singillarning borligiga bog`liqligi g`oyasini ilgari surgan. Afsuski, bu omil Sharq xalqlari, xususan, O`zbekiston uchun o`ta muhim bo`lishiga qaramay, bizda ham, kichik oilalar xos bo`lgan G`arbda ham juda kam o`rganilgan.

Psixologik adabiyotda sibling maqomi aslida (inglizcha sibling, sibs – bir oiladagi akalar va opalar ma'nosini bildiradi) – muayyan insonning muayyan oilada tug ilishi, jinsi va tug`ruqlar orasidagi rasmiy farqni ifodalovchi tushunchani bildiradi. Bolaning sibling maqomi va uning shaxsiy ko`rsatkichlar bilan bog`liqligi masalasiga xali aniqlik kiritilmagan, ya'ni aniq ilmiy dalillar etarli emas. Shunga qaramay, ko`pgina tadqiqotchilar (Richardson R., 1994; Driskoll R., Iksteyn D., 2003; Brazington R., 2003 va boshqalar) shaxsning sibling maqomi uning shaxsiga, er-xotinlik va ota-onalik maqomlariga, do`stlar bilan muomalasiga, ishda rahbariyat va hamkasblar bilan o`rnatadigan muloqotlarining xarakteriga ta'sir etishini o`rganishgan. Empirik ma'lumotlar bunday bog`liqliklarning to`rt turi mavjudligini ta'kidlaydi.

To`ng`ich bola, oiladagi farzandlarning kattasi, odatda ota-onasining umidi bo`lib, ota-onalar undan ko`p narsalarni kutadi va odatda u bu umidlarni oqlaydi ham. Undagi muvaffaqiyatlarga bo`lgan intilish, o`qish va kasb-hunar egallash yo`nalishidagi yutuqlari va unga erishish imkoniyatlari ham odatda yuqori bo`ladi. Uning muvaffaqiyatlari nafaqat ota-onaning kutishlariga bog`liq, balki ma'lum vaqt erkalatilgan bolaning, keyinchalik “taxtdan tushishi”, mavqening birdan o`zgarishi va kutishlar tizimining ham shunga yarasha boshqacha bo`lib qolishi bilan bog`liqdir. Buni Adler iborasi bilan aytganda, “detronizatsiya”, ya'ni taxtdan ayrilishi deb atash mumkin. Chunki ukasi yoki singlisi paydo bo`lgandan so`ng, ota-onasining e'tibori birdan boshqa bolaga qaratilib, unga munosabat o`zgarib qolganligini bola o`ziga xos qayg`urish bilan his qiladi. Lekin ota-onaning e'tibori va mehriga qaytadan erishish maqsadida u harakat qila boshlaydi.

Agar to`ng`ich farzandning uka ko`rgandan so`ng paydo bo`ladigan

deprivatsiyasi kuchli bo`lsa-da, o`zini ko`rsatish uchun ichki imkoniyatlari, layoqati etarli bo`lmasa (ba'zan to`ng`ich farzand nimjonroq bo`ladi), unda bolaning xulqida keskin salbiy o`zgarishlar ro`y bera boshlaydi, masalan, ukasini yomon ko`rib, unga ziyon etkazishga harakat qiladi, injiqligi bilan ota-onasini xafa qiladi, ovqat emaydigan, o`zi mustaqil ravishda uxlamaydigan, hatto, hojatga chiqmaydigan, aytilganlarni bajarmaydigan o`jar bo`lib boradi. Hayotda shunday voqealar ham kuzatilganki, endi tetapoya bo`lib, mustaqil harakatlar qila boshlagan to`ng`ich farzand ukasini itarib yuborishi, og`ziga yomon narsalarni solib qo`yishi, beshikda uxlab yotgan bolani yiqitish holatlari bo`lgan. Ya'ni, ota-onaning domimiy mehri etishmayotganligini his qilgan bolada rashk hissi uyg`onadi, uning sababchisi esa yangi dunyoga kelgan ukasidir.

Shunga qaramay, aksariyat to`ng`ich farzandlar ota-onasining ziyrakligi, o`zida paydo bo`lgan ko`nikma tufayli yangi sharoitga moslashadi, sekin-asta ukasiga mehr qo`yadi, unga g`amxo`rlik qilishdan rohatlanadigan ham bo`lib qoladi. Bu unga foyda keltiradi ham: kelajakda u turli toifa insonlar, jumladan, kattalar, obro`li insonlar bilan kelishib ishlashga harakat qiladigan, ularning ko`ngliga qaraydigan, uyida ko`rganlari ko`chada qaytarilmasligiga harakat qiladigan, moslashuvchan bo`lib o`sadi. Odatda bunday bolaning tengqurlari orasida o`ziga xos mavqeい bo`ladi. Yoshligidan ota-onaning yuzi-ko`ziga qarab, ularning munosabatini his qilishga o`rgangan bola kelajakda o`qituvchisi yoki rahbarining ham yuzi-ko`ziga qarab, muomala qilishga o`rganadi. Ota-onalik maqomiga aloqador munosabatlarni tashqarida boshqalarga ham qo`llashga ko`nikib boradi. Shuning uchun to`ng`ichlarda kirishimlilik, kichiklarga g`amxo`rlik, mustaqil qarorlar qabul qilishga, mas'uliyatni bo`yniga olish va liderlikka moyillik rivojlanib boradi. Shuning uchun ham jamiyatda rahbar lavozimlarda ishlayotgan, siyosiy va jamoatchilik idoralarini boshqarayotganlarning aksariyati oilada to`ng`ich farzand ekanligi o`rganilgan. Masalan, Amerika Prezidentlarining yarmi, 20 nafardan ortiq avstronavtlar oilada to`ng`ich farzandlar bo`lishgan. Odatda oilada o`sayotgan o`g`il bolalarining to`ng`ichi erkaklar jamoasini (masalan, harbiy, xalqaro, siyosiy tashkilotlar),

singillari bo`lgan akalar xotin-qizlar jamoasini (maktab, shifoxona), va shunga o`xhash opalar ham mantiqan mos ravishda jamoalarni muvaffaqiyatli boshqaradigan rahbarlar bo`lib etishadi. Nikoh borasida esa o`rtancha farzand ancha kelishib, baxtli yashashga moyil bo`ladi. Shuni ham ta'kidlash joizki, ayrim holatlarda aynan to`ng`ich farzandlar ba'zan jamiyatda muammoli, tarbiyasi og`irlar kategoriyasiga tushib qoladi. Bunga yo ota-onaning katta farzandidan umidlarining haddan ziyod og`irligi yoki “detronizatsiya” jarayonining bola tomonidan salbiy idrok etilishi sabab bo`ladi.

Ikkinci farzand (yoki o`rtancha) odatda kattalarga tobe, o`zgalar ko`magiga muhtoj, adolatsizlik, xaqsizliklar va qattiqlikka chidamsiz, boshqalarning munosabatlarini injiqlik bilan qabul qiladigan bo`lib o`sadi. U akasi yoki opasiga qarab, uning soyasida ayyorroq, epsizroq bo`lib ko`rinadi, chunki tug`ilganidan yonida undan kattalar borligiga u ko`nikib boradi. O`rtancha farzandlardan yaxshi san'atkorlar, sportchilar, diplomatlar, odamlar bilan ishlashga ustasi farang rahbarlar etishib chiqishi ham mumkin.

Kichik farzand umrining oxirigacha o`zini kichikman, deb his qilishga moyil bo`ladi, uni hech kim hafa qilishi mumkin emas. Hamisha g`amxo`rlik og`ushida bo`lgan kichkintoy, keljakda ham hamma erda o`zini muhofazada, xavfsizlikda his etishga moyil bo`ladi va buni o`zgalardan talab ham qiladi. Ularning kayfiyati ko`pincha yaxshi bo`lib, yon-atrofidagilar bilan yaxshi muomalaga kirisha oladi. Odatda kichik farzandda muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi kuchli, raqobatbardoshlik talab etilgan sharoitda u chidamliroq bo`ladi. Afsuski, ularning nikoh borasida omadlari kamroq bo`lishi kuzatilgan, oilada kichik farzand bo`lganlar salga ajralishni o`yaydi, chunki ulardan yaxshi vafodor, chidamli er yoki xotin chiqmaydi. Shu bois, turmush qurishga ham unchalik shoshmaydi, chunki o`ziga mas'uliyatni olishni yoqtirmaydi.

Yagona farzandning sibling maqomi to`ng`ichnikiga yaqin. Ota-onaning umidlari va orzu-havaslarini bilib katta bo`lgan bola ko`p sohada, ayniqsa, intellektual sohada katta muvaffaqiyatlarga erishishi mumkin, lekin odatda juda o`zini yaxshi ko`radigan, egoist bo`lib qolishadi. Ular jamiyatda ham xato qilib

qo`yishdan qo`rqmaydi, muvaffiqiyat sari dalil yuradi, lekin har doim ham unga erisholmaydi, chunki odamlar bilan kirishimli emas. Shuning uchun o`zbeklarda “yagona farzand – farzand emas”, degan gaplar bor, ular ota-onaning kuyib-pishib, unga barcha imkoniyatlarni yaratib, yaxshi ko`rayotganligining qadriga etmaydi. Bu kelgusida ham boshqa insonlarga nisbatan munosabatda o`z aksini topadi, keksayib qolgan ota-onaga to`ng`ich farzand qanchalik mehribon bo`lsa, yagona farzand buning aksi bo`lib, otasi va onasi vafotidan keyin ham ulardan xafa bo`lib yuradi, “nega meni tashlab ketishdi?”, deb. Shuning uchun yaxshi oila uchun kamida ikkita farzandning bo`lishi va ular o`rtasida yaxshi o`zaro munosabatlarning qaror topishi shaxs uchun ham, oila va jamiyat uchun ham foydalidir.

Siblinglar raqobati hodisasi G.T. Xomentauskas tomonidan fanga kiritilgan va o`rganilgan. Bunda bolalarning o`zaro munosabatlari, qachon bir-biriga raqib, qachon birlashishlari o`rganilgan. Masalan, oilaviy inqirozlar paytida, ota-onsa qazo qilganda yoki xastalanib qolganda ular albatta bir-biriga muruvvat qiladi, jipslashadi. Aksariyat hollarda esa, ayniqsa, rivojlangan mamlakatlarda ko`pincha bitta ota-onaning farzandlari o`rtasida o`ziga xos tarang munosabatlar kuzatilgan. Bu narsa o`sha jamiyatlardagi shaxsiy avtonomiya fenomeni bilan bog`liq bo`lib, har bir inson ilk yoshlikdan faqat o`z manfaati uchun yashaydi va kurashadi. Bunday sharoitda sibling munosabatlarining faqat ijobiy bo`lishiga erishish ancha mushkul.

O`ziga xos demokratiya muhiti oilalarda barqaror bo`lgan o`zbekistonliklar millati, irqi, kelib chiqishi va iqtisodiy maqomidan qat'iy nazar, albatta, oilada ikki va undan ortiq farzand bo`lishiga intiladi va bolalar o`rtasidagi munosabatlarni ijobiy tarzda yo`lga qo`yish, oilaviy rollar taqsimoti borasidagi ishlarga alohida mas'uliyat bilan qaraydi. Bunda er-xotin momolar va bobolar o`gitlaridan, asriy an'analar samarasidan o`rinli foydalanishga intiladi. Hukumatning bu boradagi demografik siyosati ham oilalar manfaatiga hamohang, yagona farzand mamlakat iqtisodi va uning istiqboli uchun etarli emas ekanligini bizda hamma tushunadi.

Davlatimiz rahbari va hukumatning oilada sog`lom turmush tarzini

barqarorlashtirish, milliy genofondni yaxshilash siyosatining tub ma'nosи mamlakatmизда dunyoga kelgan va kelayotgan farzandlar, avvalo, to`rt muchchasi sog` tug`ilsin, sog`-salomat katta bo`lsin va ularni dunyoga keltirgan ona onalik baxtidan to`la baxramand bo`lib, turmush o`rtog`i bilan birgalikda baxtiyor sog`lom turmush tarzini oilasida barqaror etsin. Yurtimizning barcha yirik shaharlarida tashkil etilgan skrining markazlari, petenatal shifo maskanlarining asosiy vazifasi sog`lom farzandlar tug`ilishini oldindan aniqlash va nogironlikning oldini olishdir. Zero, “Sog`lom ona – sog`lom bola” shiori har bir o`zbekistonlikning qalbiga singib ketgan naqlidir.

Oila, undagi shaxslararo munosabatlar, er-xotin va ota-onan hamda bolalar munosabatlari ko`plab tadqiqotlarning ob'ekti va predmeti bo`lgan. Bu borada O`zbekiston olimlarining ishlari ham diqqatga molik. Lekin bu haqda mahalliy matbuotda, Respublika “Oila” ilmiy-amaliy markazi tomonidan chop etilgan qator risola va qo`llanmalarda batafsil bayon etilganligi sababli, bu borada jahon adabiyotida keltirilgan ilmiy izlanishlarning qonuniyatlarini bayon etishga qaror qildik.

Xususan, ota-onalik ustakovkalarini va ularning farzand tarbiyalash uslublari muammosi rossiyalik qator izlanuvchilarning asarlarida qayd etilgan (A.E. Lichko, 1979; A.A. Bodalev, A.A. Stolin, 1989; E.G. Eydemiller, V.V. Yustitskiy, 1999). Ota-onalikning eng muhim sifatlariga avvalo – protektsiya yoki farzandlarini tarbiyalash uchun sarflanadigan kuch, vaqt va e'tiborning mezoni, bolaning turli ehtiyojlarini qondirish darajasi, intizomga chaqirish bilan bog`liq talablar darajasi, ta'qiqlovlari yoki bolaning xulqini jilovlash uchun ishlatiladigan sanktsiyalar tizimi kiradi.

#### 4-jadval

#### **Ota-onalik xulq-atvoriga ko`ra oilada bola tarbiyasining uslublari**

Tarbiya uslubi	Protektsiya	Ehtiyojlar ni qondirish	Talabcha n-lik	Ta'qiqlash	Sanksiya

Haddan ziyod g`am-xo`rlik ko`satish giperprotektsiya	+	+	-	-	-
G`amxo`rlikdan ustun keluvchi giperprotektsiya	+	±	±	+	+
Ortiqcha axloqiy mas'uliyat	+	-	+	±	±
Emotsional raddiya	-	-	±	±	±
O`ta qattiqqo`l-lik	-	-	±	±	+
Gipoprotektsiya	-	-	-	-	±

### **III. 3.bob Tajriba natijalarini qayta ishlash va amaliy tahlil qilish.**

#### **3.1.Maktabgacha yosh davridagi bolalar shaxsini rivojlanishida oilaviy munosabatlarni o‘rganish usullari.**

##### **Siz o‘z bolangizga qanday munosabatdasiz.**

Xar bir inson o‘z bolalarini kelajagi xaqida doim qayg‘uradi. Bolalar bilan qanday munosabat o‘rnatish, ularni qanday tarbiyalash xaqida bosh qotiradi. Quyida sizning bolalaringiz bilan qanday munosabatda ega ekanligingizga baxo beruvchi test berilgan: Unga javob berish orqali o‘zingiz va bolalar o‘rtasidagi munosatga tegishli bo‘lgan ma’lumotlar olasiz.

1. Ertalab bolangizni kiyinishiga yordam berasizmi?
2. Siz uni yaxshi kiyintirishga intilasizmi?
3. Yo‘lni kesib o‘tayotganda siz uning qo‘lini o‘shlab olasizmi?
4. «O‘sib otangdek bo‘lasan» deb ko‘p aytasizmi?
5. Tengdoshlari orasida, ulardan yaxshi bo‘lish kerakligini ishontirib aytasizmi?
6. Farzandingiz oldida o‘qituvchilar, tarbiyachilari xaqida yomon fikrlarni aytasizmi?
7. Bolalar o‘rtasidagi janjal yoki kelishmovchiliklarga aralashasizmi?
8. U bilan bo‘lgan muloqotda siz «bizning davrimizda bunday bo‘lgan edi» kabi so‘zlarni aytasizmi?
9. Siz undan kim bilan o‘rtoq va nima bilan mashg‘ullagini, xar doim aytishini talab qilasizmi?
10. Boshqa ota-onalardan norozi bo‘la turib siz bolangizga mexmonga bormasdan, ularni o‘z uyiga taklif qilishni tavsiya qilasizmi?

##### **Psixologik taxlil.**

Savollarga javoblar «xa», «yo‘q», «goxida» tarzida bo‘lsa, xar bir «xa» ga 3 ball, «yo‘q» ga 1 ball, «goxida» 2 ball beriladi.

10 dan 15 ballgacha - Sizga ma'lumki bolani man qilishlar orqali yoki xar doim yonini olish pand-nasixatlar bilan tarbiyalab bo'lmaydi. Siz bolangizni katta bo'layotganini to'g'ri tushunasiz, unga mustaqil bo'lishga yordam berasiz, sizga bo'lgan ishonchini yo'qotmasligini xoxlaysiz.

16 dan 23 ballgacha - Siz qizingiz va o'g'lingizni xayotdagi o'z yo'lini mustaqil topishga yo'l qo'ymaysiz, ularni sizning fikringizga qarshilik qilishga xam yo'l qo'ymaysiz. Bu sizning fikringizcha-og'ir daxmaza. O'qituvchilar bilan sizning fikringiz xar doim mos tushavermaydi, shuning uchun ular bilan o'zaro muloqot qila olmaysiz. Sizning bolangiz ulg'ayotganligiga, uni sizga bog'liqligi kamayayotganligiga ko'nika olmaysiz va bunga ishongingiz kelmaydi. Unga ozgina erkinlik bering, bu unga xam sizga xam juda kerak.

24 balldan 30 ballgacha- Siz bolangizning o'qituvchilari bilan xam, uning o'rtoqlari bilan xam yaxshi munosabat o'rnata olmadingiz. Buning sababi sizni bolangizga juda xam qatiq, yopishib olganingizdir. Siz faqat uning uchun yashayapsiz.

Xayotingizning ma'nosi faqat farzandingiz baxtini yoritishga deb bilasiz. Bu bolani tarbiyalashning to'g'ri yo'li emas, chunki bolani to'g'ri tarbiyalash uchun oilada to'g'ri munosabatlar o'rnatilgan bo'lishi kerak. Siz o'z tarbiya metodingizdan tezda voz kechishingiz va bolani erkin nafas olishi uchun imkoniyat yaratishingiz kerak. Tez orada buning natijasini ko'rasiz, bolangiz ancha boshqacha bo'lib qoladi, sizning esa bo'sh vaqtingiz ko'payadi.

### **Sizning bolalaringiz bilan munosabatingiz qanday?**

1. Oilangizda bolalar bilan o'zaro tushunish bor deb xisoblaysiz?
2. Bolalar siz bilan «qalbdan gaplashadimi?», «shaxsiy ishlari» bo'yicha maslaxatlashadimi?
3. Ular sizning ishingiz bilan qiziqadimi?
2. Siz bolalaringizni o'rtoqlarini bilasizmi?
3. Farzandlaringizni o'rtoqlari siznikida bo'lib turishadimi?
4. Bolalar siz bilan birga xo'jalik ishlariga ishtirok qiladimi?
5. Siz ularni qanday o'qishini tekshirib turasizmi?

6. Sizni ular bilan birgalikda band bo‘ladigan umumiy mashg‘ulotingiz bormi?
7. Bolalar siz bilan bayramlarga tayyorgarlikda birgalikda ishtirok qiladilar.
8. Bolalar bayramlarida ular siz bilan birgalikda bo‘lishni xoxlaydilarmi yoki aksincha kattalarni ishtirokisiz bo‘lishini istaydilarmi?
9. Siz bolalar bilan o‘qilgan kitobni muxokama qilasizmi?
10. Televizordagi filmlarni-chi?
11. Siz ular bilan teatrarda- muzeylarda, konsertlarda bo‘lasizmi?
12. Bolalar bilan birga sayllarda bo‘lasizmi?
13. Bolalaringiz bilan birgalikda ta’tilingizni o‘tkazishni xoxlaysizmi yoki yo‘qmi? Tasdiqchovchi javobga «2» ball, agar «goxida», «ayrim paytlarda»javobi bo‘lsa «1» ball. Agar javobi «yo‘q» bo‘lsa «0» ball.

Agar siz 20 va undan ortiq, yiqqan bo‘lsangiz sizning bolangiz bilan munosabatingiz muvaffaqiyatlidir. Agar 10 dan 20 ballgacha bo‘lsa, u xilda qoniqarli. Lekin siz o‘zingizning ishlaringizni xar taraflama o‘ylab ko‘rishingiz kerak. Agar 10 dan kam bo‘lsa siz darrov o‘zingizni bolangiz bilan munosabatingizni yaxshi yo‘lga solish tomonlari xaqida o‘ylab ko‘ring.

### **Biz qanday ota-onalarmiz?**

Biz ko‘p xollarda o‘zimiz qanday ota-onalar ekanimiz xaqida xech o‘ylab ko‘rmaymiz. O‘zimizni tarbiyachilik vazifamizni bajara olayapmizmi, yo‘qmi deb o‘ylab ko‘rganmizmi?

O‘zingizni bu soxada tekshirib ko‘ring. Xar bir ijobiy javobga 2 ball va inkor javobga 0 ball, «goxida», «ayrim paytlarda» javobiga 1 ball beriladi.

1. Sport va jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari bolani garmonik rivojiga katta ta’sir qilishiga ishonasizmi?
2. Siz balangizni biror narsani qil deb bo‘yruq bermasdan, undan shuni qilishni iltimos qila, olasizmi?
3. Siz bolani biror yumushga yordam berishdan qutilish uchun qo‘yidagi so‘zlardan foydalanasizmi: «Mening vaqtim yo‘q», yoki «to‘xtab tur men ishimni bajarib olay».

4. Jurnallarda, tlevideniyada va radioda beriladigan tarbiya mavzusidagi eshittirishlarni eshitib borasizmi? SHu temaga tegishli bo‘lgan adabiyotlarni vaqtiga bilan o‘qib turasizmi?
5. Sizning bolangiz gunox ish qilib qo‘ydi. Siz bu o‘zingiz bergen tarbiyaning natijasi deb o‘ylab ko‘rasizmi?
6. Siz o‘zingizni turmush o‘rtog‘ingiz bilan barcha masalalarida xamfikrmisiz?
7. Agar bolangiz sizga o‘zining yordamini taklif qilsa, sizning ishingiz o‘shlanib qolsa xam yoki umuman to‘xtab qolsa xam, uning yordamini qabul qilar edingizmi?
8. Siz man qiluvchi yoki bo‘yrug‘ beruvchi so‘zlarni faqat kerak bo‘lgandagina ishlatasizmi?
9. Siz ketma-ketlikni pedagogik tarbiyaning asosiy prinsiplaridan biri deb o‘ylaysizmi?
10. Bolani o‘rab turuvchi muxit unga qattiq ta’sir qiladi deb xisoblaysiz?

**Natijalar:**

6 ball to‘plagan bo‘lsangiz, siz tarbiya to‘g‘risida juda oz ma’lumotga ega ekansiz. Sizga maslaxatimiz bu soxadan bilimlaringizni ko‘paytirib, tezda o‘z o‘stingizda ishlashga kirishing.

7 balldan 14 ballgacha: Siz bu soxada katta xatolar qilasiz, lekin shunga qaramasdan o‘zingizni, bu soxadan ishlaringizni bir sarxisob qilib ko‘rsangiz yomon bo‘lmaydi. Xozirgi yaqin kunlardagi dam olish kuningizni bolalaringizga bag‘ishlab, o‘z ishlaringizni unitishga e’tibor bering. Albatta ishoning. Bolalar bu ishingiz uchun sizni taqdirlashadi.

15 balldan yuqori ball siz o‘z ota-onalik burchingizni to‘liq bajarasiz. SHunga qaramay ayrim tomonlarga e’tibor berib, uni to‘ldirsangiz yomoi bo‘lmasdi.

**«OILA RASMI» TESTI.**

**Oila bola ko‘zi bilan**

Pedagoglar va psixologlar oila muammolarini, uning an’ana va udumlarini, bola shaxsining shakllanishida oilaning ta’sirini o‘rganishda juda ko‘p ishlar qilmoqdalar.

Bola ota – onaning faqatgina tarbiyaviy ta'sir etish mahsuli emas. U o‘z oilasini o‘zicha tushunadi va qabul qiladi. Oiladagi o‘z o‘rnini o‘zaro aloqada belgilaydi va oilada o‘zini o‘zicha anglaydi. Bolalar ro‘y berayotgan hodisalarga kattalarga nisbatan boshqacha baho beradilar. Biz qachonki atrofimizdagi olamni bola ko‘zi bilan ko‘rishga o‘rganib olganimizdan so‘nggina, ularni to‘g‘ri tushunamiz, hayajonlariga, qayg‘ulariga yordam bera olamiz. Eston psixologi G.Xementaskas tomonidan ishlab chiqilgan mashxur «Oila rasmi» testi kattalarga dunyoni bola ko‘zi bilan ko‘rishga yordam beruvchi vositadir. Bu test bolaning o‘z oilasiga bergan shaxsiy bahosi haqida, oila a’zolari bilan bo‘lgan munosabatlari, bola nimalarni idrok qila olmasligi, nimalarni kuchli xayajon bilan his qilishi haqida tushuncha beradi. Nimalar bolani ongsiz ravishda xavotirga solsa, xuddi shu narsalar bolalarning rasmlarida ifodalanadi.

Oila rasmi bola shaxsining psixologik portretidir. Bu testni 3 yoshdan 10 yoshgacha bo‘lgan bolalarda qo‘llash mumkin. Psixologlar bu testdan bolaning oiladagi «Men»ini o‘rganish maqsadida foydalanadilar. Bu testni o‘tkazish pedagogik va psixologik amaliyotda qulay va ommabop. Bu testni o‘qituvchilar, maktab psixologlari va ota – onalar o‘tkazishlari mumkin.

Tadqiqotni o‘tkazish uchun: 21 x 29 smhajmidagi oq qog‘oz, o‘chirg‘ich kerak. Bolaga: «Iltimos, o‘z oilang rasmini chizib ber» - deb aytildi. Lekin «oila» nima ekanligi haqida tushuntirilmaydi, chunki tadqiqot o‘tkazishning maqsadi o‘zgaradi. Topshiriqni o‘tkazish uchun vaqt chegaralanmaydi. Topshiriqni bola bajarayotganda quyidagilarga e’tibor berish kerak: tarkiblarni chizish ketma – ketligi, tarkiblarni o‘chirilishi, bolaning izohlarga, his – hayajonga berilishi vah.k.

Topshiriq bajarib bo‘lgandan so‘ng bolaga quyidagi savollar beriladi: 1) Aytchi, sen bu rasmda kimlarni chizding? 2) Ular qaerdalar? 3) Ular nima qilyaptilar? 4) Ular xursandmilar, yoki biron narsadan zerikkanmilar? 5) Ulardan qaysi biri baxtli? Nimaga? 6) Ulardan qaysi biri juda baxtsiz? Nimaga?

«Oila rasmi» testini tahlil qilish uchun a) bolaning yoshi, b) oila a’zolarining sonini v) aka, uka, opa, yoki singillarining yoshini bilish kerak.

### **Oila rasmining tahlili**

- 1) Bolaning haqiqiy oilasi uning chizgan oila rasmi bilan taqqoslanadi. Oiladagi o‘zaro munosabatlar va undagi muhit ijobiy bo‘lsa, bola oiladagi barcha a’zolarning rasmini chizadi. Agar rasmida oila a’zolarining birontasi chizilmagan bo‘lsa, demak oilaviy vaziyat mukammal emas.
- 2) Agar rasmida oilaga taalluqli bo‘lman odamlarning rasmi chizilgan bo‘lsa: a) e’tiborsizlik, yolg‘izlanib qolish, b) kuchli katta xavotirlanish darajasi.
- 3) odatda bolalar oilaning qaysi bir a’zosi bilan nizoli muammo vujudga kelgan bo‘lsa, shuni chizishni unutib qo‘yadilar. Ko‘p hollarda aka, uka yoki opa, singillarning rasmini chizmaydilar. Bu bilan bola oilada o‘zining ustunligini, ota va onasining mehriga to‘ymaganligini ifodalaydi. Masalan, bola o‘zini ota va onasining o‘rtasida chizib ko‘rsatgan, kichik ukasi yoki singlisini esa umuman chizmagan.
- 4) Agar bola o‘z rasmini chizmagan bo‘lsa yoki oilasining o‘rniga faqat o‘zinigina chizsa, demak bu holda oilada umumiy birlikning yo‘qligidan dalolat beradi.
- 5) Agar oilasining o‘rniga bola hayvonlar va qushlarni chizsa, demak bolaga e’tibor va hissiy muloyimlik etishmaydi.
- 6) Agar bola oila a’zolarining rasmini qo‘llari tutashgan va bir qatorda chizgan bo‘lsa, demak bu oiladagi psixologik iqlim yaxshi. Agar unday bo‘lmasa, demak aksincha.
- 7) Agar oila a’zolari guruh – guruh bo‘lib chizilgan bo‘lsa, demak bu oilada kichik guruhlar borligini bildiradi. Masalan, 9 yoshli o‘g‘il bola o‘zini otasi bilan, onasi va opasini esa alohida guruhda chizgan.
- 8) Oila a’zolarining kiyimlarida ko‘p tarkiblarning borligi, rangligi oilaviy munosabatlarning ijobiyligini ko‘rsatadi va aksincha oilaviy munosabatlarda adovat bo‘lsa, oila a’zolarining gavdalari to‘liq bo‘lmay, kiyimsiz yoki tugatilmay chiziladi.
- 9) Bolalar odatda otasi va onasini juda katta qilib chizadi. Demak, oiladagi munosabatlar tenglik asosida, bola o‘zini oilada kattalardek xis qiladi.

10) Agar bolalar o‘zlarini otasi va onasidan ham katta qilib chizsa, demak bolani o‘z – o‘zini baholash darajasi juda ham yuqori.

11) Agar bola o‘zini boshqa oila a’zolariga nisbatan juda kichik ota – onasi tomonidan g‘amhurlik talab qiladi.

12) Agar bola o‘z rasmini qo‘llarini yuqoriga ko‘targan holda, barmoqlarini uzun qilib chizgan bo‘lsa, bu uning tajovuzkorligidan xabar qiladi. Ba’zan bunday rasmlarni yuvosh bolalar ham o‘zining atrofidagi odamlarga nisbatan tajavuzkorona ruhda ekanligi, lekin bu holat yashirinligi ma’lum bo‘ladi hamda bola kuchli va o‘zgalar ustidan xukmron bo‘lish hohishi borligini bildiradi.

13) Agar bola oila a’zolarining qo‘llarini mushtcha tugilgan holda, barmoqlari uzun holatda chizsa, demak u shu oila a’zosining o‘ziga nisbatan tajovuzkorligini his qiladi.

14) Agar bola o‘zining tishlarini katta qilib chizgan bo‘lsa, demak unda tishlash, baqirish, qo‘pollik qilishga moyillik kuchlidir. Agar bola boshqa oila a’zolarini shunday holatda chizsa, ana shu oila a’zosiga nisbatan qo‘rquv va dushmanlikni his qiladi.

15) Oila rasmi testi bolaning yosh xususiyatlari bilan bog‘liqdir. 3 – 4 yoshdagi bolalar odam gavdasini chiziqlar bilan to‘liq bo‘lmagan holda chizadilar. 7 – 8 yoshli bolalarning rasmi esa ancha boyroq bo‘lib, gavda tuzilishlari to‘liq, rasmlar tugallangan bo‘ladi.

SHunday qilib, bola o‘zini oilada qanday xis qilishni bilishini hohlasangiz, unga toza oq qog‘oz bering va oila rasmini chizib berishini iltimos qiling.

Oila kinetik rasmining alomatlari majmui

Alomatlar majmui	№	Alomat	Ball

I.	Qulay oilaviy vaziyat	1 2 3 4 5 6 7	Oiladagi barcha a'zolarning umumiylar Rasmida odamlarning ko'pligi Oiladagi barcha a'zolarning ko'pligi Oilada yakkalanib qolgan a'zolarning yo'qligi SHtrixovkaning yo'qligi CHiziqning yaxshi sifati Adovat ko'rsatkichlarining yo'qligi Varaqda odamlarning o'xshash tarzda taqsimlanishi Mumkin bo'lgan boshqa belgilar	0,2 0,1 0,2 0,2 0,1 0,1 0,2 0,1 0,1
II.	Xavotirlani sh	1 2 3 4 5 6 7 8 9 10	SHtrixovka Asos chizig'i – jins Rasm ustidagi chiziq Kuchli bosib chizilmagan chiziq O'chirish Detallarga e'tibornikuchaytirish Narsalarning ko'pligi Qo'shaloq yoki uzuq – uzuq chiziqlar Ayrim detallarni ta'kidlash Mumkin bo'lgan boshqa belgilar	0,1,2, 3 0,1 0,1 0,1 0,1,2 0,1 0,1 0,1 0,1 0,1 0,1
		1 2 3 4 5 6 7 8 9 10	SHaxslaro 'rtasidagito'siqlar Ayrimshakllarningo'chiribtashlanishi Ayrimshakllardagavdaningba'zibirqismlariningyo'qligi Ayrimshakllarniajratibko'rsatish Ayrimshakllarniyakkalabqo'yish Ayrimshakllarningo'xshashbo'limgankattaligi Tashqitasvirbilanrasmningmoskelmasligi Narsalarningko'pligi Rasmدا oilaa'zolaridanayrimlariningyo'qligi	0,2 0,1,2 0,2 0,2 0,2 0,2 0,2 0,1 0,1

	7	Orqasibilanturganoilaa’zosi Mumkinbo‘lganboshqabelgilar	0,2
	8		0,1
IV. Oilaviy vaziyatda mukammal emaslik tuyg‘usi	1	Rasm muallifi nomutanosib ravishda kichik	0,2
	2	SHakllarning qog‘ozning quyi qismiga joylashtirilishi	0,2
	3	CHiziq zaif, uzoq – yuluq	0,1
	4	Muallifning boshqalardan ajralib qolishi	0,2
	5	Kichik shakllar	0,1
	6	Muallif shaklining boshqalarga nisbatan harakatsizligi	0,1
	7	Muallifning yo‘qligi	0,1
	8	Muallif orqa o‘girib turibdi	0,2
V. Oilaviy munosabatl arda adovat	1	Mumkin bo‘lgan boshqa belgilar	0,1
	2	Bitta shakl boshqa varaqda yoki varaqning orqa tomonidan	0,2
	3	SHakllning tutgan tajovuzkor yo‘li	0,1
	4	O‘chirib tashlangan shakl	0,2
	5	Qiyofasi o‘zgartirilgan shakl	0,2
	6	Teskari profil	0,1
	7	Qo‘llar ikki tomonga yoyilgan	0,1
	8	Barmoqlar uzun, ta’kidlab ko‘rsatilgan	0,1

### O`tkazilgan metodikalar taxlili.

Metodikani Andijon shaxridagi “Istiqlol nihollari” nomli Maktabgacha ta`lim muassasasining tarbiyalanuvchilarida o`tkazildi Misol uchun 5 yoshli qizchaning chizgan oila rasmiga murojaat qilamiz. Qizning oilasi onasidan, buvisidan va o‘zidan iborat. Qiz rasmda o‘zini, onasini va otasini chizgan. Otasi anchadan beri ular bilan yashamaydi. Bundan shunday xulosa chiqarish mumkin: bola oiladagi umumiy birlikni his qilmaydi, buvisiga nisbatan tajovuzkorlik bor. Onasi bilan o‘zining orasida hissiy iliqlik yo‘q. Rasmda bola otasi bilan birga yashash hohishi

borligini yashirincha bildirgan. Bola o‘zini oilada yolg‘iz, yakkalangan holda, hamma tomonidan tashlab qo‘yilganday his qiladi. Ikkinci misol, 6 yoshli bola o‘z oilasini tasvirlagan. Rasmda barcha oila a’zolari bir– birining qo‘llarini ushlagan holda tasvirlanganlar. Bola o‘zini rasmning markazida chizgan. Rasmni tahlil qilar ekanmiz, oiladagi psixologik iqlim yaxshi ekanligini bilib oldik. Bola o‘zini oilada kerakligini, ota–onasining va oila a’zolarining mehrini his qiladi.

Metodikani 50 ta tarbiyalanuvchilarida o`tkazildi . Bolalarda o`tkazilgan tajribalarda shuni aniqladikki bolaning ijtimoiylashuvida o`zini begonalar oldida erkin tutishi ko`proq birinchi va oxirgi farzandlarda ko`rindi. Ota-onalari kamroq vaqt ajratadigan oilalarda psixologik yaqinlik yo`qligi faqat 10% bolalarda kuzatildi. Oiladagi o‘zaro munosabatlar va undagi muhitning ijobiyligi 81% bolalarda kuzatildi. 9% bolalardagi chizgan rasmlarda onalarni o`zidan uzoqlashtirganini kuzatdik bu onalar ko`proq kichik farzandlarga e`tibor berib kattalarga vaqt ajratmaganidan dalolat beradi. Bolalar bilan olib borilgan suhbatlar shuni ko`rsatdiki oiladagi e`tibor bola shaxsini rivojlanishida asosiy o`rin egallaydi.

## Xulosa

Yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqqan va insonning ontogenetika psixik rivojlanishini mukammal, to‘la bo‘lmasa-da, olib berish imkoniyatiga ega bo‘lgan umumiyliz qoidalar, ya’ni prinsiplar mavjud. Ana shu prinsiplar asosida turli yosh va jinsdagi odamlarda olib boriladigan ilmiy tadqiqot ishlarida metodologik va metodik xatolarga kamroq yo‘l qo‘yiladi. Shunday ishlarda inson tug‘ilganidan umrining oxirigacha qanday o‘zgarib borishi to‘g‘risida ma’lumot to‘plash mumkin. Xulosa qilib aytganda, oila ijtimoiy institut sifatida o‘zining barcha vazifalarini bajargan taqdirdagina, mafkuraviy tarbiyaning kafolatli o‘chog‘iga aylanadi.

Zero, har bir oilaning muqaddas vazifasi – qobiliyatli farzandlarni o‘stirish, ularni jismoniy, intellektual va ma’naviy tomondan yetuk qilib, ota-onasiga, Vataniga sadoqatli insonlar qilib tarbiyalashdan iborat. Ya’ni, ham ma’naviy, ham jismoniy jihatdan sog‘lom, barkamol inson faqat sog‘lom oilada shakllanishi mumkin. Oiladagi sog‘lom muhit va barqarorlik esa yaxlit jamiyat ma’naviy takomilining aslosidir.

Oilaning musathkam va barqaror bo‘lishi uning a’zolari salomatligiga, ota-onalikka psixologik jihatdan tayyorligiga bevosita bog‘liq bo‘lgani uchun ham mamlakatimizda bu borada aniq mexanizmlar ishga solingan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining nikohlanuvchi shaxslarni tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish to‘g‘risidagi 365-sonli qarorining amalda joriy etilishi, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarida o‘qitilayotgan “Oila psixologiyasi” kurslarining uzlusiz ta’lim tizimiga kiritilganligi kabilarning davlat tomonidan moliyalashtirilayotganligi ham fikrimizning dalilidir. Bola tarbiyasida ota-onanining bir-biriga munosabati, o‘zlarini tuta bilishlari muximdir. Oilada muomalaning barcha qoidalariga amal qilinishi lozim. Kattalarga xurmat, kichiklarni avaylash, bir-biriga mexribonlik, ayniqsa, ayollarni izzat qilish odatga, qoidaga aylanib borishi kerak. Bolalarga onani xurmat qilishga, unga mexribon bo‘lishni o‘rgatish ota-onanining muxim vazifasidir. Odatda o‘g‘il otasiga, qiz bola onasiga o‘xshashga, ulardagi yaxshi xislatlarni o‘ziga singdirishga harakat qiladi. Ota ham ona ham

bolani tarbiyalashga o‘z xissalarini qo‘sadilar. Ona g‘amxo‘r, mexribon, ko‘ngilchan o‘y bekasi bo‘lsa, ota - kuch-qudrat, jasurlik, qattiqqo‘llik vaadolat ramzi. Ota ko‘proq bolaning aqliy va jismoniy rivojlanishi uchun qayg‘ursa, ona ham bolalarning aqliy, ahloqiy, jismoniy, ruxan va ma’nana kamoloti uchun baravar javobgar, chunki, ularning birdan-bir maqsadi shaxsni tarbiyalashga qaratilgandir. Ana shu jarayonning muvaffaqiyatli bajarilishi, ko‘p o‘rinda ota-onaning obro‘siga bog‘liq. Manfaatlari umumiyl bo‘lgan axil oilada yaxshi kelajakda yuksak intelektual salohiyatli kishilar yetishib chiqadi.

Olib borilgan kuzatishlar, olingan anketa savolariga javoblar va empirik tajribalar asosida quyidagi huloslarni keltirish mumkin.

- 1.Faqat sog`lom psixologik muhitda barkamol farzandlar ulg`ayadi.
- 2.Farzandlarning aqliy kamoloti oiladagi ota-onalarning psixologik bilimdonligiga bog`liq.
- 3.Maktabgacha yosh davridagi bolalar qiziquvchan bo`ladilar, ularning qiziqishlarini so`ndirmaslik uchun oila a`zolari bolaga doim e`tborda bo`lishlari lazim.

## **Tavsiyalar.**

Olingan natijalar asosida quyidagi tavsiyalarni berib o‘tamiz.

- 1 Bog‘cha yoshidagi bolalar shaxsini rivojlanishida oilaning psixologik muxitini soglom bo‘lishini ta’minlash maqsadga muvofiq.
- 2 Oiladagi ota-onas, farzandlar munosabatlaridagi ijobiy xislatlarning bola ongiga ta’siri nuqtai nazardan muomala jarayonini to‘g‘ri tashkil etish zarur.
- 3.Bolaning fikrlariga qulqoq tutmoqlik , savollariga to‘g‘ri javob berish orqali uning mustaqilligini shakllantirishda ijobiy natijalarga etirish imkoniyati oshadi.
- 4..Oilaviy muammolarning bola ko‘zida muhokama qilinishi, turli xovotirlanish xissini paydo qiluvchi xolatlardan qochish, bola erkin fikrlaydigan qilib tarbiyalash uchun uning eng kichik muvaffaqiyatlaridan quvonish, uni doimo qo`llab quvatlash, tengdoshlari oldida unga chiroyli muomala qilish bolani etuk shaxs sifatida shakllanishida katta ahamiyatga ega bo‘ladi.
- 5.Bolaning tarbiyasida sog‘lom tarmush tarziga doim amal qilish maqsadga muvofiq.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.**

1. O’zbekiston Respublikasi Konsitutsiyasi T. O’zbekiston,2008 y
2. O’zbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyorlash Milliy daturi” T.1997 y
3. O’zbekiston Respublikasi “Ta’lim to’g’risidagi”qonun T.1997 y.
4. I.A..Karimov “Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch” T. 2008 y
5. O’zbekiston Mustaqillikka erishish ostonasida.To’plam
6. Juhon moliyaviy iqtisodiy inqirozi va uni O’zbekiston sharoitida bartaraf etish.T.2008 y.
- 7..I.A.Karimov. Yangicha fikrlash va ishlash— davr talabi.T.5. O’zbekiston, 1997.
- 8 .I.A.Karimov. «Barkamol avlod orzusi». 1998 y.
- 9.I.A.Karimov. «Ma’naviyat yuksalish yo’lida». 1999 y.
- 10 I.A.Karimov. «O’zbekiston XXI asr bo’sag’asida» 1992 y.
- 11.I.A.Karimov. «Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch», Toshkent, 2008, 171
- 12.I.A.Karimov. Garmonichno razvitoe pokolenie osnovi progressa Uzbekistana. T. 1998, 73-bet
- 13.A.K.Bolotova, Prikladnaya psixologiya: Uchebnik dlya vuzov. M. Gardariki, 2006. – 382 s.
14. A.A.Krilova, «Psixologiya». Pod red. -M., 1998
15. A.Xolbekov. – T.: DJQA “Rahbar” markazi; “YUNAKS-PRINT” MChJ, 2006. – 230 b.
16. A.A.Krilov, Psixologiya. Uchebnik / Otv. red. prof. – 2-e izd., pererab. i dop. – M.: Izd-vo: PROSPEKT (TK Velbi). 2004. – S. 241-243
17. D. Maers Sosialnaya psixologiya / Perev.s angl. – SPb.: Piter, 1999– 688 s. Piter, 1999– 688 s.
18. D. Karnegi Muomala sirlari. Toshkent, «Navro‘z», 1992.
19. E.G. G‘oziev Umumiy psixologiya. Toshkent. 2010.
20. E.G. G‘oziev Umumiy psixologiya. Toshkent. 2002.1-2 kitob.
21. E. G‘oziev Umumiy psixologiya. –T., 2003

22. E.G‘. G‘oziev Psixologiya. –T.: O‘qituvchi, 1994. -223 b.
23. E.G‘.G‘oziev, Tursunov L., Ikromov J. XXI asr va shaxs kamoloti. GG «Xalq ta’limi» jurnali, 1996, №5. 3-8-b.
24. E.G‘.G‘oziev. Taraqqiyot psixologiyasi. - T.: «Universitet», 1999. - 48 b.
25. I.I. Maxmudov Boshqaruv psixologiyasi: O’quv qo’llanma / Ma’sul muharrir:
26. R.S. Nemov «Psixologiya». Kn.1. - M., 2003
27. J. Godfrua CHto takoe psixologiya: V 2-x t. T.1. Per. s frans. M., Mir, 1992.
28. M.I. Enikeev Obshaya i sosialnaya psixologiya: Uchebnik dlya vuzov. – M.: Norma, 2005. – 624 s.
29. M.Voxidov. «Bolalar psixologiyasi». Toshkent. 1992 y.
30. O.E. Hayitov Psixologik iqtisod: O’quv qo’llanma / Professor V.M.Karimova tahriri ostida. – T.: TDIU, 2006. – 130 b.
31. P. Ergashev Muloqot psixologiyasi (ma’ruzalar matni). Toshkent, 2003
32. S.Qosimov, N.Mo‘minov- Rahbarlik qobiliyati va boshqaruv masalalari. Toshkent, 2001.
33. S.YU.Golovin. Slovar prakticheskogo psixologa // Sost.– Minsk: Xarvest, M.: OOO “Izdatelstvo AST”, 2003. – S. 635-721.
34. T. Adizova Boshqaruv muloqoti psixologiyasi. Toshkent, 2000.
35. V.M.Karimova., F.A.Akramova. Psixologiya. Ma’ruzalar matni. T., 2000, 138-bet
36. V. Drujinina “Psixologiya “. Uchebnik. “Piter”, 2003.
37. R.S. Nemov «Psixologiya». -Kn.1. - M., 1998
38. V.M.Karimova Auditoriyada bahs-munozarali darslarni tashkil etishning psixologik texnikasi.- T., 2000
39. YA.S. Gamilton. “CHto takoe psixologiya”. “Piter”, 2002.
40. V.M.Karimova Psixologiya. O’quv qo’llanma. – T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, “O’AJBNT” markazi, 2002. – 205 b.
41. V.M.Karimova, Akramova F.A. Psixologiya. Ma’ruzalar matni. 1-qism. – T.: TDIU, 2005. – 208 b.

42. V. Kvinn Prikladnaya psixologiya. – SPb: Izdatelstvo “Piter”, 2000 – 560 s.
43. V.N.Drujinina. Psixologiya. Uchebnik dlya ekonomiceskix vuzov / Pod obsh. red.– SPb.: Piter, 2002. – S. 341-348.
44. V.A. Labunskoy. Sosialnaya psixologiya lichnosti v voprosax i otvetax: Ucheb. posobie / Pod red. prof.– M.: Gardarika, 1999. – 397 s.
45. V.M.Karimova Yangi turdagি ta’lim muassasalaridagi o’quvchilarni mustaqil fikrleshsga o’rgatishning psixologik muammolari. Yangi turdagи o’rta maxsus o’quv yurtlarida ta’lim-tarbiyaning samaradorligini oshirishning psixologik muammolari. – T., 1998.-10-13 betlar.
46. V.M.Karimova Ijtimoiy psixologiya asoslari. - T.: «O’qituvchi», 1994.
47. V. Karimova Psixologiya. O’quv qo’llanma. - T.: A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2002. – 205 bet.
48. X.Xekxauzen Psixologiya motivasiي dostijeniya / Per. s angl. – SPb: Rech, 2001. – 240 s.

**Internet manbalari:**

1. http: [www.lib.psixology.msu.ru](http://www.lib.psixology.msu.ru)
2. http: [www.lib.psixology.ru](http://www.lib.psixology.ru)
3. http: [www.Ziyonet.uz](http://www.Ziyonet.uz)
4. http: [www.google.uz](http://www.google.uz)
5. http: [www.Pedagog.uz](http://www.Pedagog.uz)